



**O‘ZBEKISTON REPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAHSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI
MENEJMENT KAFEDRASI**

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

“Menejment” kafedrası mudiri

_____ i.f.n. X.A.Berdiyev
“ _____ ” _____ 2015 yil

“TASDIQLAYMAN”

“Iqtisodiyot” fakulteti dekani

_____ i.f. d. A.F.Xurramov
“ _____ ” _____ 2015 yil

KELDIYEV ISMOIL XOLMUMINOVICHning

***5230200 – “Menejment” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun***

***“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni
jalb qilishning iqtisodiy samaradorligi”.***

***(“Qarshi ta’mirlash zavodi” MCHJ misolida)
mavzusida yozgan***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI:

“Menejment” ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi IV kurs MJ-466 guruh
talabasi _____ Keldiyev I.X.

ILMIY RAHBAR:

Iqtisodiyot fanlari
doktori _____ Muxitdinov X.

“Bitiruv malakaviy ishi” kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi

_____ sonli bayonnoma “ _____ ” _____ 2015 yil.

Qarshi – 2015 yil

M u n d a r i j a

	Kirish.....	
I-bob	Milliy iqtisodiyotda investitsiyalar va investitsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari.....	
1.1	Iqtisodiyotda investitsiyalarning tutgan o'ri, investitsiyalarning turlari.....	
1.2	O'zbekiston sharoitida investitsiyalarni jalb qilish. Investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga ta'siri.....	
II-bob	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarish va ulardan samarali foydalanishning tahlili.....	
2.1	“Qarshi ta'mirlash zavodi” MCHJning tashkiliy iqtisodiy asoslari va boshqaruv strukturasi.....	
2.2	Korxonada aylanma mablag'larni foydalanish ko'rsatkichlari tahlili.....	
III-bob	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish.....	
3.1	Investitsion faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslublarining o'ziga xos xususiyatlari.....	
3.2	Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish jarayonida markazlashgan investitsiyalar samaradorligini oshirishda xorij ajribasi.....	
	Xulosa va takliflar.....	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi investitsiyalar ertangi turmush tarzini belgilab beradi. Prezidentimizning “Biz oddiy bir haqiqatni doimo esda tutishimiz darkor. Ya’ni, sarmoyasiz taraqqiyot yo‘q, ishlab chiqarishni va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi”¹ degan so‘zlari fikrimizning isboti bo‘ladi. Ko‘pgina mamlakatlarda ichki investitsiya manbalarining cheklanganligi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni talab qiladi. O‘z navbatida, investorlar biror mamlakatga investitsiya kiritishda kutilayotgan daromad miqdoriga ko‘ra ish yuritadilar. Investorlar e’tiborini jalb etishda mamlakatning geografik o‘rni, siyosiy ahvoli, iqtisodiy potentsiali kabi muhim omillar birlamchi ahamiyat kasb etadi. Afrika, O‘rta Sharq va Xitoy mamlakatlarining bevosita xorijiy investitsiyalar kiritilishida eng yuqori pog‘onalarda joylashganligi fikrimizning yaqqol dalili bo‘lib xizmat qiladi.

Odatda, investitsiya qabul qiluvchi mamlakatlarni uzoq muddatli investitsiyalar qiziqтира, investorlar esa qisqa muddatli investitsiyalar taklif qilishni xohlaydilar. Aktsiya va obligatsiyalarga kiritiladigan qisqa muddatli investitsiyalar portfel investitsiyalari yoki “issiq pul” deb ataladi. Issiq pul – yanada ko‘proq miqdorda daromad olish yoki inflyatsiyaning salbiy ta’siridan qochish maqsadida bir sohadan boshqa sohaga yohud, bir davlatdan boshqa davlatga tezda o‘tqaziladigan ko‘p miqdordagi pul mablag‘laridir.²

Boy rivojlangan mamlakatlardan kiradigan kapital rivojlanayotgan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar tomonidan qabul qilinishi kerak. Chunki xorijiy kapitallar investitsiyani moliyalashtiradi hamda iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantiradi va bu orqali mamlakat aholisi turmush tarzini yaxshilashga yordam beradi. Kapital oqimi rivojlangan mamlakatlarga esa portfellarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Biroq kutilmagan qisqa muddatli katta hajmdagi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. <http://www.press-service.uz/uz/news/4875/>

² Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: книжный мир, 2003, - 895 бет.

kapital salbiy makroiqtisodiy ta'sir kuchiga ega. Issiq pulning kutilmaganda chiqib ketish holati iqtisodiyotga o'z salbiy ta'sirini o'tkazadi. Bu, albatta, sodir bo'lishi aniq bo'lgan holatdir. Oqibatda, asosiy vositalar narxi tushadi va shu mamlakat valyutasi muvozanati buziladi. Aynan shu holat 1997 yilda Sharqiy Osiyo Moliyaviy inqiroziga sabab bo'lgan edi. Demak, investitsion siyosatning nechog'lik to'g'ri yo'naltirilgani mamlakatning ertangi taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSH dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Investitsiya dasturini amalga oshirishda korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalarning yildan-yilga faol ishtirok etayotgani barchamizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi. Birgina o'tgan yilda bunday investitsiyalar hajmi 10,3 foizga o'sib, 4 milliard 300 million dollarni yoki jami investitsiyalar hajmining qariyb 30 foizini tashkil etdi.

Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda, biz mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'z oldimizga katta maqsadlar qo'yanmiz. Hozirgi kunda yog' – moy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zavodlarning to'la quvvat bilan ishlamayotganligi barchamizga ma'lum holatdir. Buning asosiy sababi sobiq ittifoq davrida respublikamizda barcha unumdor yerlarning paxta yetishtirish uchun ishlatilganligi va yog'-moy zavodlarining o'sha davrdagi yetishtiriladigan paxta chigiti hajmiga mo'ljallanib qurilganligidir. O'zbekiston mustaqilikka erishgandan so'ng respublikamizda nafaqat paxta yetishtirish, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Bu sharoitda mavjud zavodlar quvvatidan imkon qadar to'la ravishda foydalanish milliy iqtisodiyotimizning muammolaridan

biridir. Zavodlarning to'la quvvat bilan ishlashini ta'minlash uchun ichki manba'lar bilan bir qatorda xorijiy investorlar bilan hamkorlikda ishlash ushbu muammoni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatda korxonalarda investitsiyalarning samaradorligini oshirish, investitsion faoliyatni oqilona boshqarishning ustuvor vazifa ekanligi mavzuning naqadar dolzarbligini belgilab beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ishlab chiqarish korxonalarida investitsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy usullari samaradorligi muammolari ko'plab iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotining diqqat markazini egallab kelgan. Bu muammolar A.Smit, J. M. Keynes, I. Fisher, Dj. Evans, S. Archer, kabi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan

Birinchilardan bo'lib shotlandiyalik olim Adam Smit "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari tadqiqi" asarida kapitalni tog'ri yo'naltirish haqida fikr yuritgan. Uning fikriga ko'ra, kapital to'rt xil yo'llar bilan: ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom ashyoni yetishtirish, bu xom ashyoni qayta ishlash, xom ashyo yoki tayyor mahsulotni ortiqcha bo'lgan joydan ular yetishmaydigan joyga tashish va, nihoyat, iste'molchilar ehtiyojiga ko'ra, mahsulotlarni kichik portsiyalarga bo'lish maqsadlarida sarflanishi mumkin. Ushbu jarayonlarning ketma-ket amalga oshishida iqtisodiyotning turli sub'ektlari ishtirok etadilar. Jarayonlar ketma-ketligining birinchisi bevosita yer omiliga kapitallarini sarflovchi iqtisodiyot sub'ektlari, ikkinchisi ishlab chiqarish korxonalari, uchinchisi ulgurji savdogarlar va to'rtinchisi chakana savdogarlar zimmasiga tushadi. Adam Smit kapitalni bu to'rt xil yo'ldan boshqacha sarflashni tasavvur qilish mumkin emas deb ta'kidlaydi³. Hozirgi iqtisodiy jarayonlarni kuzatadigan bo'lsak, bu fikrning zamonaviy iqtisodiyotga mos kelmasligiga amin bo'lamiz. Chunki fan va texnikaning rivojlanishi iqtisodiyotning xom ashyoga bog'liq bo'lmagan tarmoqlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Bunga birgina kompyuter

³ Адам Смит. Исследования о природе и причинах богатства народов. Книга III. Глава 5. О различных помешениях капиталов. – www.finteoria.ru/inform-a6.html

dasturlarini ishlab chiqarish sohasida kapitalni sarflanishini misol qilib olish kifoya.

Ingliz iqtisodchisi J.M.Keynsning investitsiyalarning tabiati yuzasidan olib borgan izlanishlari zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. U o'zining "Protsent va pul bandligining umumiy nazariyasi" asarida kapitalning yakuniy samaradorligi, uzoq muddatli takliflar, protsent me'yorlari va kapitalning tabiati haqida fikr yuritgan. Uning kapitalning yakuniy samaradorligi tushunchasi bilan yakuniy unumdorlik, daromad va qadrilik tushunchalari orasidagi farqni ilmiy asoslab bergani, ayniqsa, ahamiyatga molikdir.

Investitsiyalarning mohiyati, ulardan samarali foydalanish masalalari Respublikamiz olimlaridan Sharifxo'jaev M.Sh., Chjen V.A., G'ulomov S.S., Abdullaev Y.A., O'lmasov A.U., Rasulov M.R., G'ozibekov D., Dodoboev Yu., Abduhamidov A., Vaxobov A., Ishbo'taeva X., Abdukarimov B.A., Pardaev M.K, Shavqiev E.Sh., Urazov K.B. va boshqa bir qator olimlar tadqiqot olib borganlar. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida investitsiyalar, ulardan foydalanish masalalarining nazariy va metodologik tomonlari keng o'rin olgan. Lekin, alohida mintaqa yoki tuman, korxonalar misolidagi investitsiyalardan samarali foydalanish masalalari nisbatan kam tadqiq qilingan. Mazkur mavzudagi magistrlik dissertatsiyasi aynan ushbu muammolarning tadqiqi va yechimiga bag'ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi ishlab chiqarish korxonalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish, investitsion faoliyatni boshqarish yuzasidan ilmiy asoslangan uslubiy tavsiya va amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ish vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi:

- Investitsiyalarning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, investitsion faoliyatni boshqarish, investitsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslarini o'rganish;

- Investitsiyalar samaradorligini baholash, xususan yog'-moy ishlab chiqarishda kiritilga investitsiyalar samaradorligini baholashning nazariy asoslarini o'rganish;

- Ishlab chiqarishga investitsiyalar kiritishning dunyo tajribasi bilan tanishish va O'zbekiston sharotida tajribalarni maqsadli qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish;

- Yog'-moy ishlab chiqarishda investitsiyalar samaradorligini texnik-iqtisodiy asoslash va iqtisodiy baholash;

- Ishlab chiqarish korxonalarida investitsiyalar samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Bitiruv malakaviy ishning predmeti bo'lib ishlab chiqarishga investitsiyalar kiritishda ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruvning iqtisodiy usullari samaradorligini oshirishda vujudga keluvchi boshqaruv usullari hisoblanadi.

Ishning amaliy ahamiyati: Bitiruv malakaviy ishining asosiy jihatlari va natijalari «Qarshi ta'mirlash zavodi» OAJda va boshqa ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida foydalanishlari mumkinligi orqali namoyon bo'ladi.

1. INVESTITSİYALAR VA INVESTITSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLAR

1.1. Iqtisodiyotda investitsiyalarning tutgan o'rni. Investitsiyalarning turlari.

Bugungi investitsiyalar ertangi turmush tarzini belgilab beradi. Investitsiya moliyaviy nuqtai nazardan foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar bo'lib, buyumlashmagan kapital shaklida bo'ladi. Iqtisodiy jihatdan esa yangi korxonalar qurish, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi asbob uskunalariga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Investitsiyalar hajmini belgilovchi asosiy omillar bo'lib foiz stavkasi va kutilayotgan o'rtacha foyda me'yori hisoblanadi.

Har yili dunyo xo'jaligiga 2.0-2.5 trln. AQSh dollari miqdorida investitsiya sarf ettiriladi. Asosiy investorlar bo'lib yettita o'ta rivojlangan davlatlar yoki Rambuys klubiga a'zo bo'lgan davlatlar hisoblanadi. Bular AQSh, Fransiya, Germaniya, Angliya, Italiya, Yaponiya va Kanadadir.

Makroiqtisodiy nazariyada investitsiyalar - I, uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari - C, hukumat xarajatlari - G, hamda sof eksport xarajatlari - Xn bilan birga jami xarajatlarni (jami talabning) tashkil etadi, ya'ni uning bir qismi deb qaraladi.

$$YMM = C + I + G + Xn$$

Investitsiya mablag'larining asosiy manbai bo'lib yopiq iqtisodiyot sharoitida mamlakatdagi uy xo'jaliklari jamg'armalari -Sp, hamda hukumat jamg'armalari -Sg hisoblanadi.

$$S = Sp + Sg$$

Ochiq iqtisodiyot sharoitida bunga xorijga chiqariladigan mamlakat ichki jamg'armalari bilan xorijdan investitsiyalar va kreditlar ko'rinishida kirib keladigan jamg'armalar o'rtasidagi farq -Sxn ham qo'shiladi:

$$S = Sp + Sg + Sxn$$

Investitsiyalar hajmidagi u yoki bu manbaa ulushi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, mamlakatdagi daromadlar darajasiga, ijtimoiy tuzulmaga,

amalga oshirilayotgan iqtisodiy vazifalarga, iqtisodiy siyosat strategiyasiga bog'liq.

Bizga ma'lumki milliy iqtisodiyotda yaratilgan yalpi daromad(YMM) ning bir qismi turli shakllarda iste'mol qilinadi, bir qismi esa yuqorida ko'rsatilgan shakllarda jamg'ariladi. Milliy iqtisodiyotga qilingan jami investitsiya xarajatlari bilan yalpi jamg'armalar o'rtasida tenglikka erishish, Ya'ni $I=S$ ayniyatning ta'minlanishi makroiqtisodiy muvozanatga erishishning muhim shartlaridan biridir.

Bu ayniyatga o'z-o'zidan erishilmaydi, chunki uy xo'jaliklari nafaqat sarmoya sifatida foydalanish maqsadida, balki kutilmagan xarajatlar, qimmatroq buyumlar xarid qilish uchun ham mablag' jamg'aradilar. Ya'ni jamg'armalarning bir qismi investitsiyalarga kelib qo'shilmaydi. Bunday vaziyatda hukumat investitsiya xarajatlarining bir qismini o'z zimmasiga olishi yoki xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali yuqoridagi ayniyatni ta'minlashi, bu uchun esa mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratishi lozim. Samarali byudjet-soliq, pul-kredit, valyuta va tashqi savdo siyosati, investorlarga yaratilgan kafolatlar va imtiyozlar hamda makroiqtisodiy barqarorlik bu muhitni belgilovchi shartlardir. Ayniqsa inflyatsiya sur'atlarining yuqori bo'lishi jamiyatda inflyatsion psixoz holatini yuzaga keltirib, iste'molga cheklangan moyillikning ortishiga, jamg'armalar va oxir-oqibat investitsiyalar hajmining pasayishiga olib keladi.

Investitsiyalar hajmini belgilovchi asosiy omillar bo'lib foiz stavkasi va kutilayotgan o'rtacha foyda me'yori hisoblanadi. Kapital egalari foiz stavkasidan yuqori, yoki hech bo'lmaganda unga teng bo'lgan sof foyda me'yorini ta'minlagan loyihalargagina sarmoya qo'yadilar. Bundan xulosa shuki, hukumat foiz stavkalarini tushirishga erishsa iqtisodiyotga qilingan investitsiyalar miqdori orta boradi. O'tish davrini boshidan kechirayotgan, milliy iqtisodiyotda tuzulma o'zgarishlarini, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish jarayonlarini amalga oshirayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy resurslar taqchilligi doimo sezilib turadi. Arzon ishchi kuchi, boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan bizning respublikamiz uchun ham bu muammo hayotiy ahamiyatga ega. SHu sababli o'zimizning cheklangan resurslarimizni, xorijiy mamlakatlardan ma'lum imtiyozlar berish hisobiga jalb etilayotgan investitsiya mablag'larini milliy

iqtisodiyot nuqtai nazaridan eng samarali sohalarga, loyihalarga sarf etish zarur . Buning uchun esa yuqorida ta’kidlanganlardan tashqari, investitsiya loyihalarini tahlil qilishning eng zamonaviy uslublarini, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning uslublari, shakllarini ham puxta o’rganishimiz lozim.

Xorijiy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiya.

Kapital investitsiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa shakllarini ishlab chiqarishga qo’shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning Yangi avlodini ishlab chiqish va o’zlashtirishga qo’shiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne’matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo’shiladigan investitsiyalar kiradi.

Xorijiy investitsiyalar ko’lamiga qarab xalqaro doiradagi, ya’ni xalqaro investitsiyalar ko’rinishiga ham ega bo’ladi. Xalqaro investitsiyalar – jahon mamlakatlari o’rtasida harakatda bo’lgan investitsiyalardir.

Investitsiyalarni xorijga chiqarish, ularning mamlakatlar o’rtasidagi faol harakati zamonaviy jahon xo’jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralib turuvchi xususiyatlariga aylandi. Investitsiyalarni chetga chiqarish jahon xo’jaligidagi tovarlarni chetga chiqarish monopoliyasini tugatdi. Hozirgi vaqtda xalqaro investitsiyalarning o’rtacha yillik o’sish sur’ati 30%dan oshadi. Bu ko’rsatkich jahon savdosi o’sishi sur’atlaridan deyarli 5 marotaba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o’zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo’lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamg’arilgan zaxiralarni mujassamlashtiradi. Ushbu investitsiyalar doimiy ravishda mamlakat ichida bir tarmoqdan boshqasiga, hamda davlatlararo harakatda bo’ladi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi.

Qo’yilish obyektiga qarab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi. Real investitsiyalar (kapital qo’yilmalar) – pul mablag’larini

korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat. Moddiy investitsiyalar asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyihalar doirasida amalga oshiriladi. SHuning uchun shaxsiy mablag'lar bilan birga qarzga olingan mablag'lar ham foydalanilishi mumkin.

Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar (investorlar) quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi.

Joriy faoliyatning yo'nalishlari bo'yicha institutsional va individual investorlar. Institutsional investorlar roliga sanoat, savdo, transport, aloqa va boshqa sohalardagi aksioner jamiyatlar namoyon bo'lsalar, individual investorlar roliga fuqarolar namoyon bo'ladi.

Investitsiyalash maqsadlari bo'yicha strategik va bevosita investorlar. Ular o'z oldiga kompaniyalarni boshqarish huquqini olishni maqsad qilib qo'yadilar. Buni ular boshqa kompaniyalar aksiyalarining nazorat paketini sotib olish yoki ularning ustav kapitalinig katta qismini egallash orqali amalga oshiradilar. Portfel investorlar dividend va foiz shaklida daromad olish maqsadida o'z kapitalini turli moliyaviy vositalarga joylashtiradilar.

Rezidentlikka tegishliligi bo'yicha investitsiyalar milliy va xorijiy investorlarga ajratiladi.

Nomoddiy investitsiyalar nomoddiy boyliklar yaratilayotganda amalga oshirilib, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, ilmiy-bitiruv malakaviy ish va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, yangi maxsulotlarning namunalarini yaratishga sarflarni mujassamlashtiradi.

Fan-texnika taraqqiyotining tezlashuvi bilan intellektual salohiyat ishlab chiqarishning eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy unsuri bo'lib qoldi. XX asr boshlarida fan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun sarflanadigan qo'yilmalar oshib bordi. SHuning uchun ham jahonda real investitsiyalar tarkibida ilmiy izlanishlar, fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash uchun sarflanadigan xarajatlar o'sib bordi. Masalan, AQSH, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda fan va ilmiy izlanishga sarflanadigan qo'yilmalar o'sish sur'atlari asosiy fondlarga sarflanadigan investitsiyalardan ustundir. Jahon bozoriga kirib borish, keng

ko'lamda marketingni rivojlantirish, batafsil axborotga ega bo'lish, yuqori darajadagi kompyuter tizimlarini tashkil etishni, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va mazkur sohada dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga erishishni talab etadi. SHuning uchun ham jadal sur'atlar bilan rivojlanish real investitsiyalar tarkibida fan, texnika, ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash uchun sarflanadigan real investitsiyalar asosiy o'rinlardan birini egallashi zarur.

Asosiy fondlarga sarflangan real investitsiyalar maqsadi, sarflanish yo'nalishlari va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra hududlararo, tarmoqlararo, texnologik, qayta ishlab chiqarish tarkiblariga ega. Asosiy fondlarga sarflangan investitsiyalarni, ularning aktiv (mashinalar, asbob-uskunalar) va passiv (bino, inshootlar) qismlarini tashkil etish uchun sarflangan umumiy harakat yig'indisidagi ulushi investitsiyalarning texnologik tarkibini tashkil etadi. Qayta ishlab chiqarish tarkibi investitsiyalarning qanday maqsadlarga yo'naltirilganligi; yangi qurilishga, ishlab turgan korxonalarni kengaytirishga, rekonstruktsiyaga va yangi texnika bilan qayta qurollantirishga jalb qilingan xarajatlarni umumiy xarajatlardagi har birining nisbiy jihatdan ulushini ko'rsatadi. Investitsiyalarning hududlararo va tarmoqlararo tarkibi esa ularning nisbiy jihatdan hududlar va tarmoqlar bo'yicha taqsimotini bildiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning asosiy qismini shaxsiy investitsiyalar tashkil etadi. Davlat sektorida real investitsiyalar sarfi muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy muvofiqlashtirish siyosati asosida kreditlar, subsidiyalar ajratiladi, davlat kapital qo'yilmalari muvozanatlashtiriladi va real investitsiyalar o'zlashtiriladi.

Davlat tomonidan o'zlashtiriladigan investitsiyalar dastlabki bozor infratuzilishini va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga sarflanadi. Investitsiyalarni samaradorligini oshirish asosiy kapitalni aktiv elementlarini vujudga keltirish va o'stirish hisobiga amalga oshiriladi. Investitsiyalar yo'naltirilayotgan sohalar va ularni ishlatishdan olinadigan natijalarga ko'ra real va moliyaviy investitsiyalarga bo'linadi. Real investitsiyalar deb real kapitalning o'sishiga olib keladigan, ya'ni ishlab chiqarish mablag'lari, material boyliklarning o'sishini ta'minlash uchun qo'yilgan qo'yilmalarga aytiladi. Moliyaviy investitsiya

deb aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar uchun qo'yilgan qo'yilmalarga aytiladi. Bu qo'yilmalar buyum ko'rinishdagi kapitalning o'sishini o'zida mujassam etmasada, lekin foyda shu jumladan spekulativ foyda ya'ni qimmatli qog'ozlar kursi o'zgarishi natijasida vujudga keladigan foyda keltiradi. Moliyaviy investitsiyalarning ikki xil ko'rinishi bo'ladi. Aksiyalarni sotib olish real moddiy ko'rinishdagi kapitalni yaratmaydi. Lekin kelajakda spekulativ ko'rinishda foyda olish mumkin bo'ladi. Aksiyalarni sotishdan tushgan mablag'ni ishlab chiqarish uchun, asbob uskunalr sotib olish uchun sarflaganda u real kapitalga aylanadi va real investitsiya ko'rinishini oladi. SHu sababdan qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdi operatsiyalari natijasida olinadigan spekulativ foyda keltiruvchi moliyaviy investitsiyalar va qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida pul ko'rinishdagi real moliyaviy investitsiyalarni farqlash lozim.

Real investitsiyalarni tavsiflash ularni hajmi va daromad keltirishi asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy investitsiyalar kapitalni, to'lov va moliyaviy majburiyatlarning barcha turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, moliyaviy aktivlarga joylashtirilishini anglatadi. Ushbu moliyaviy vositalarning eng muhimlari qimmatli qog'ozlardir: ulushli (aksiyalar) va qarz (obligatsiyalar). Real investitsiyalardan farqli o'laroq moliyaviy investitsiyalarni ko'proq portfel investitsiyalar deb atashadi, chunki bu holda investorning asosiy maqsadi bo'lib moliyaviy aktivlarning mukammal yig'masini (investitsiyalar portfelini) shakllantirish va qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni boshqarish hisoblanadi. Moliyaviy investitsiyalar shaxsiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalarga, obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga va bank depozitlariga, uzoq muddatga jalb qilinadigan qo'yilmalardir. Moliyaviy investitsiyalarning asosiy qismi, kapitalni noishlab chiqarish sohasiga sarflanishini bildiradi. Moliyaviy investitsiyalar aksariyat holatlarda real investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Moliyaviy investitsiyalar erkin bozor infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda, qimmatli qog'ozlar bozori orqali kapitalni sohalar bo'yicha taqsimlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlatlarda ko'prok tarqalgan.

Rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy investitsiyalarining tarkibida asosiy o'rinni shaxsiy investitsiyalar tashkil qiladi.

Shaxsiy investitsiyalar, tadbirkorlar, xususiy firmalar, kontsernlar va aksioner tashkilotlar tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarga sarflanadigan mulkdorlik va intellektual boyliklarni anglatadi. Yetuk qimmatli qog'ozlar bozori mavjud bo'lgan mamlakatlarda shaxsiy investitsiyalarni ko'pgina qismi maxsus investitsiya fondlari tomonidan sarflanadi. Xorijiy investitsiyalarning moliyaviy shakli (portfel investitsiyalar) milliy iqtisodiyotda istiqbolli korxonalarni aniqlash va keng miqyosda investitsiyalashni amalga oshirishga asos bo'la oladi.

Investitsiyada qatnashish xarakteriga ko'ra investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga ajratiladi. Bevosita investitsiyalar investorni o'z Moliyaviy mablag'lag'larini joylashtirish obyektni tiklash imkoniyatini beradi. Portfel investitsiyalar tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Moliyaviy vositachilar to'plangan mablag'larni samarali, daromad keltiradigan qilib joylashtiradilar. Portfel investitsiyalar boshqa emitentlarning anderratting yordamida qimmatli qog'ozlarga joylashtirish shaklida namoyon bo'ladi.

Investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi) va uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga beriladi) bo'ladi. Masalan, oddiy aksiyalar umuman biror – bir muddat bilan cheklanmaydi. Masalan, depozit sertifikatini olti oy muddatga beriladi – bu qisqa muddatli qo'yilmalar vositasidir, obligatsiyalar 20 yilda qaytarish muddati bilan uzoq muddatli qo'yilmalar vositasidir. Lekin, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni sotib olish va qisqa muddatdan, masalan olti oy o'tgandan so'ng, investor uzoq muddatli vositalardan qisqa muddatli maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Ko'pincha investorlar ana shunday vositalarni tanlaydilar va o'z pullarini qisqa muddatlarga qo'yishni xoxlaydilar. Masalan, yaqin olti oy mobaynida investorga kerak bo'lmaydigan summaga, u olti oylik muddatga ega bo'lgan depozit sertifikatini sotib olishi mumkin: qirq yoshga to'lgan investor pensiyaga chiqquncha pul yig'ish uchun biron-bir kompaniyani obligatsiyasini 20 yilga sotib olish mumkin. Odatda uzoq muddatli investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida namoyon bo'ladi.

Mulk shakllaridan kelib chiqib investitsiyalar xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy shakllarga ajratiladi. Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslarining va fuqarolarning mablag'larini tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qo'yilishini anglatadi. Davlat investitsiyalari davlat byudjeti va davlat korxonalarining mablag'laridir.

Hududiy joylashtirish bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Xorijiy investitsiyalar davlat yoki xususiy investitsiyalar shaklida bo'lishi mumkin. Birinchi shaklda davlat investitsiyalari ishtirok etib, bunda bir davlat boshqa davlatga kreditlar yoki boshqacha shakldagi qarzar berishi mumkin. Bunday munosabatlarga xalqaro huquq normalari qo'llaniladi. Ikkinchi shaklda esa, bir mamlakat xususiy firmalari, kompaniyalari yoki fuqarolari boshqa mamlakatning tegishli subyektlariga beradigan investitsiyalar tushuniladi. Davlat investitsiyalari deb davlat tomonidan milliy daromadning davlat byudjetining mablag'lari ko'rinishida mamlakat iqtisodining rivojlanishi uchun sarflayotgan mablag'lariga tushuniladi. Xususiy investitsiyalar deb xususiy kompaniyalar, aholi va tadbirkorlar tomonidan mablag'larning qo'yilishiga aytiladi. Investitsiya munosabatlari shu darajada murakkab va ko'p qirraliki, ko'pincha davlatlar o'rtasidagi munosabatlar xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlar bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Bunday aloqa investor huquq va talablarni davlatga topshirganda yaqqol ko'rinadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalarni qo'llash ko'lamini va investitsiyaga mablag' ajratish jihatdan turlarga ajratishadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonidagi investitsiyalashdan tashqari mamlakatda ijimoiy madaniyat sohalarini uchun, fan tarmoqlari uchun, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohalarini uchun, informatika sohasi, tabiatni muxofaza qilish uchun, yuqorida ko'rsatilgan sohalar uchun qurilishlarga, texnika va texnologiyalarni yangi turlarini qo'llash uchun katta miqdorda investitsiya mablag'lari ajratilmoqda. Bu investitsiyalarni hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlar adabiyotida «inson investitsiyasi», «inson kapitaliga investitsiya qilish» deb atashmoqda. Bu investitsiyaning alohida bir ko'rinishi bo'lib, asosan kishilarning sog'ligini saqlash

, aqliy va ma'naviy rivojlanishi uchun, xayotini uzaytirish hamda kishilarning ish faolliyatida ijodiy qatnashi va uning samaradorligi oshishi uchun sarflanadi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida investitsiyaning asosiy qismlari sog'likni saqlash, maorif uchun sarflanmoqda. Bunga misol qilib, qishloq joylarda vrachlik ambulatoriya punktlari, kollej va litseylar qurish dasturlarini misol qilib olish mumkin.

Ma'lumki investitsiyalar ma'lum bir vaqtga qo'yiladi. SHu sababdan Moliyaviy qo'yilmalar uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarga ajratiladi. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar bir yildan ko'p bo'lgan muddatlarga qo'yiladi, ba'zan 10 yillarga ham qo'yilishi mumkin. Masalan kishi faktori uchun qo'yilgan investitsiyalar kishilar olgan bilimlardan samarani ko'p yillardan keyin olish mumkin. Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarga bir yilgacha bo'lgan muddatga qo'yilgan investitsiyalar tushuniladi, ya'ni shu muddatda qo'yilgan mabalaglar o'z samarasini berishi lozim.

Maqsadiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga bo'linadi. Bevosita investitsiyalar – bu kapitalni to'g'ridan-to'g'ri eksporti bo'lib, investitsiya kirituvchiga shu korxona ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Bunda korxona asosiy kompaniyaning xorijdagi shaxobchasiga aylanadi. Bevosita xorijiy investitsiya(BXI)lar asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida bo'ladi.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni BXIlar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aksionerlik kapitalining xissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich AQSHda 10%, Fransiya va Buyuk Britaniyada 20% ga yaqin, Germaniyada 25%dan 50% gacha, O'zbekistonda esa 49% darajasida belgilangan. SHuningdek, shu korxonaning boshqaruvida bevosita amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekanligi ham uning muhim belgilaridan biridir. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun ma'suliyatni davlat va aholi

zimmasiga yuklamasdan, balki ularni tadbirkorlik tizimlari urtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli hisoblanadi.

BXI borasidagi yana bir yondashuv bu turdagi investitsiyalarni faqat mulkchilik ko'lamini bilan, ya'ni aksionerlik kapitalidagi ulushi bilan bog'liq, deb ko'rsatadi. Unga muvofiq BXIlarni:

- a) xorijda aksiyalarni sotib olish orqali;
- b) foydani qayta investitsiyalash yordamida;
- v) firma ichki qarzlar va qarzдорliklari orqali amalga oshirish mumkin.

Ko'pchilik iqtisodchilar bu shakllar yetarli emas, deb hisoblashadi va asosli ravishda turli xil noaksioner shakllar orqali bu ro'yxatni davom ettirishadi (subkontraktlar, boshqaruv kelishuvlari, francheyzing, litsenzion kelishuvlar va boshqalar).

BXIlarning shakl va usullariga bog'liq tushunchalar bilan bog'liq turli xil yondashuvlarning ko'payishi qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolar umumbashariy xarakterga ega bo'lib, nostandart yondashuvlar yechimini talab etadi.

Bevosita investitsiyalar ikki guruxga bo'linadi:

1. Transkontinental kapital qo'yilmalar.
2. Transmilliy qo'yilmalar.

Transkontinental kapital qo'yilmalar - investitsiya kiritish uchun qulay bozor sharoiti bo'lgan holda boshqa bir davlat yoki kontinentdan investitsiya eksportini amalga oshirishdir. Asosiy maqsad – bozorni egallash va shu kontinentda yangi ishlab chiqarishni tashkil etish.

Transmilliy kapital qo'yilmalari asosan qo'shni davlatlarga amalga oshiriladi. Bundan asosiy maqsad – bosh kompaniyaga nisbatan qilinadigan kapitalning harakatini minimum darajada amalga oshirish.

Bevosita investitsiyalar ikki maqsadga yo'naltiriladi:

1. Yangi kompaniya tashkil etish.
2. Bankrot bo'lgan kompaniyalarni xarid qilish.

Portfel investitsiyalar (portfolio investments) - shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi. Bunday investitsiyalar korxonalarning moliyaviy xujalik faoliyati ustidan nazorat o'rnatish huquqini bermaydi. Xorijiy portfel investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda firmalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu turdagi investitsiyalarga asosan Moliyaviy muammolarni yechish uchun murojaat qilinadi. Korporatsiyalarning Moliyaviy bo'limlari mablag'larning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga qisqa muddatli investitsiyalardan yuqori foyda olish uchun o'tkazadilar. Bunday investitsiyalar ko'pincha xususiy tadbirkorlar kapitaliga asoslangan, ba'zida esa o'z qimmatbaho qog'ozlarini chiqaradi va xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib oladi.

Xalqaro portfel investitsiyalari mamlakat to'lov balansida qanday klassifikatsiyalangan bo'lsa, shunday aks ettiriladi. Portfel investitsiyalar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

-aksioner qimmatbaho qog'ozlari (equity securities) - bozor muomalasidagi pul xujjati bo'lib, xujjat egasining ushbu xujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy huquqqa egaligini tasdiklaydi;

-zayom qimmatbaho qog'ozlar (debt securities) - bozor muomalasidagi pul xujjati bo'lib, zayom egasining ushbu xujjatni chiqargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.

Zayom qimmatbaho qog'ozlari quyidagi shakllarda chiqariladi:

-obligatsiya (bond) (oddiy veksel, qarz majburiyati) pulli dastak bo'lib, uning sohibiga kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi yoki shartnoma asosida belgilangan o'zgaruvchan pul daromadini olish huquqini beradi;

-pul bozori dastaklari - pulli dastak bo'lib, uning sohibiga ma'lum bir davr ichida kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi. Bu dastaklar bozorda pasaytirilgan narxlarda sotiladi, narxni pasaytirish darajasi foiz stavkasining katta–kichikligiga va qarzni qoplanish muddatiga bog'liqdir. Bularga g'azna veksellari, depozit sertifikatlari, bank apsentlari va boshqalar kiradi.

Moliyaviy derivatlar (financial derivatives) – bozor narxiga ega bo'lgan pulli dastak bo'lib, uning sohibiga birlamchi qimmatbaho qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Bularga optsiyonlar, fyucherslar, varrantlar, svoplar kiradi.

Xalqaro portfel investitsiyalari harakatini hisobga olish maqsadida to'lov balansida quyidagi kategoriyalar qabul qilingan:

Nota (qarz majburiyati) (note) - qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak bo'lib, bank bilan kelishuv asosida qarz oluvchining o'z nomiga chiqariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta'minlanadi. Keng tarqalgan notalar – Yevronotalardir.

Optsiyon (option)- shartnoma (qimmatbaho qog'oz) bo'lib, xaridorga ma'lum bir qimmatbaho qog'oz yoki tovarni belgilangan muddatdan so'ng yoki ma'lum bir davr ichida qat'iy belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradi. Optsiyon xaridori uning egasiga yuqorida qayd etilgan huquqlarni sotishi evaziga mukofot pulini to'laydi.

Varrant (warrant) – optsiyonning bir turi bo'lib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan imtiyozli sharoitda ma'lum bir miqdordagi aksiyalarni sotib olish imkonini beradi.

Fyuchers (futures) –qimmatbaho qog'ozlarni, valyuta yoki tovarlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish borasidagi bajarilishi majbur bo'lgan qisqa muddatli standart shartnomalardir.

Forvard kursi (forward rate)- asosiy qarz summasining ma'lum bir o'zgarma qismiga nisbatan belgilangan vaqtda to'lanadigan foiz stavkasining hajmi to'g'risida kelishuv bo'lib, u o'sha kundagi foiz stavkasidan past yoki yuqori bo'lishi mumkin.

Svop (swap) – savdo qoidalariga amal qilgan holda bitta qarzni to'lash bo'yicha ma'lum bir muddat o'tgandan so'ng shartlarni o'zgartirish bo'yicha bitim.

Portfel investitsiyasining bevosita investitsiyalardan afzallik tomoni shundaki, ular tugatilish vaqtida qimmatbaho qog'ozlar tezda naqd valyutaga almashtirib olinishi mumkin. Portfel investitsiyalarning amalga oshirilishining asosiy sababi – tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda xorijiy investor o'z mablag'larini xorijda maksimal foyda keltiruvchi qimmatbaho qog'ozlarga joylashtirishi mumkin. Ma'lum bir ma'noda portfel investitsiyasi pulni inflyatsiya va spekulyatsiya yo'li bilan foyda ko'rishdan saqlash vositasi sifatida qaraladi. Bunda investitsiya qilinayotgan soha ham, qimmatbaho qog'oz turi ham hech qanday ahamiyatga ega emas, u ustama kurs o'sishiga qarab istalgan foydani bersa va dividendlar to'lansa bo'ldi.

1-jadval

Bevosita va portfel investitsiyalar o'rtasidagi farqlar

Belgilar	Bevosita investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Kapital chiqarishdan asosiy maqsad	Xorijiy firma ustidan nazorat o'rnatish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borish	Xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish

Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga to'liq egalik qilish b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XVJ nizomiga binoan kompaniya aksioner kapitalining 25%dan kam bo'lmasligi kerak)	Xorijiy firma aksioner kapitalining 25%dan (AQSH, Yaponiya, Germaniyada 10%dan) kamini sotib olish
Daromad shakllari	Tadbirkorlik faoliyati foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

Manba: Akopova E.S., Voronkova O.N. i dr. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Rostov-na-Donu: «Feniks», 2000.- S. 278 (416 s).

1.2. O'zbekiston sharoitida investitsiyalarni jalb qilish.

Investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga ta'siri.

O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt anglab yetganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, chet el investitsiyalarini kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas.

Bu borada so'z ketganda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlashimiz lozim: "Bugun joylarda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruktsiya qilish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, nechog'lik katta hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini kimgadir isbot qilib berishga hojat yo'q. Bu

avvalombor, aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish, bu oxir – oqibatda respublikamiz hududlari, shahar va tumanlarimizdagi eng muhim ijtimoiy muammolarni yechish demakdir”⁴.

Shu boisdan ham vatanimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag’batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o’ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi korxonalarni rag’batlantirish asosan soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Chunki har bir investor o’z sarmoyasini biror hududga kiritar ekan uni befarq qoldirmaydigan va e’tiborini tortadigan asosiy masala u yerda amal qilayotgan soliq qonunchiligi hamda soliqlardan berilayotgan imtiyozlar masalasidir. Shu sababdan soliq imtiyozlarini to’g’ri yo’nalishlarda taqdim etish, ulardan samarali va oqilona foydalanishni yo’lga qo’yish lozim, aks holda esa imtiyozlarni berishdan ko’zlangan maqsadlarga erishilmaslikka olib keladi. Shunga ko’ra, iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqyosdagi investitsiyalarni talab qiladi.

Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta’minlovchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarimizni ishga solib iqtisodiyotimizga yo’naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirishimiz lozim.

Vatanimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilish va investitsiya faoliyati taraqqiyotini ta’minlash qulay investitsiya muhitini barpo etishni talab qiladi. Mamlakatimizda Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasining tashkil etilgani chet el investitsiyalarini jalb etishda ko’p jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda, desak, hech qanday mubolag’a bo’lmaydi. Jamg’armaning asosiy vazifasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va yo’l-kommunikatsiya sohasidagi strategik muhim investitsiya loyihalarini xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda moliyalashda faol ishtirok etishdan iborat ekani, o’ylaymanki, sizlarga yaxshi ma’lum.

⁴ Karimov I.A. “Inson manfaatlarini ustuvorligini ta’minlash – barcha islohot va o’zgarishlarimizning bosh maqsadidir”. // Xalq so’zi, 2008 yil, 9 fevral.

Jamg'arma faoliyat boshlaganidan buyon o'tgan qisqa vaqt mobaynida 15 milliard dollardan ziyod miqdordagi aktivlarga ega bo'lgan qudratli moliya institutiga aylandi.

Jamg'arma o'z mablag'lari bilan umumiy qiymati 29 milliard dollardan ziyod 86 ta strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihasini hamkorlikda moliyalashtirishda ishtirok etmoqda. Faqat 2013-yilning o'zida Jamg'arma mablag'lari ishtirokida qiymati 780 million dollardan ortiq bo'lgan 33 ta o'ta muhim loyiha amalga oshirildi.

Ma'lumki, biz mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'z oldimizga katta maqsadlar qo'yganmiz. Ularni amalga oshirishda kerakli imtiyozlarga ega bo'lgan maxsus industrial zonalarini tashkil etish yo'lida oxirgi yillarda biz ko'pgina tajribalarga ega bo'lmoqdamiz.

Buning amaliy tasdig'ini «Navoiy» va «Angren» maxsus industrial zonalarini faoliyati misolida ko'rish mumkin.

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon uning hududida umumiy qiymati 100 million dollardan ziyod bo'lgan 19 ta investitsiya loyihasi bo'yicha ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. Jumladan, yuksak texnologiyalar asosida modem va televizorlar uchun pristavkalar, elektr energiyani elektron hisoblagichlar, yuqori kuchlanishga chidamli kabellar, issiqlik va suv isitish qozonlari, mobil va statsionar telefon apparatlari, tayyor dori vositalari va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

2014-yilda yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yuqori sur'atlar bilan olib borildi.

O'zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari izchil davom ettirildi. Masalan, umumiy foydalanishdagi 530 kilometrlik avtomobil yo'li qurilib, rekonstruksiya qilindi. To'rt qatorli G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynov avtomobil yo'lining 141 kilometrlik tarmog'ini sement-beton bilan qoplash, to'rt qatorli Toshkent-O'sh avtomobil yo'lining Qamchiq dovoni orqali o'tadigan 18 kilometrlik qismida asfalt-beton

yotqizish ishlari amalga oshirildi, ana shu yoʻlning Qoʻqon shahrini aylanib oʻtadigan 15 kilometrlik tarmogʻi, shuningdek, Toshkent aylanma yoʻlining yangi yoʻnalishi barpo etildi hamda Buxoro shahridagi halqa yoʻlda yoʻl oʻtkazgich qurilishi yakuniga yetkazildi.

Mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun oʻtgan yili Respublika yoʻl jamgʻarmasi va xalqaro moliya institutlarining 565 million dollar qiymatidagi mablagʻlari jalb etildi.

2014-yilda temir yoʻl transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish boʻyicha ishlar jadal olib borildi. Yil davomida ushbu maqsadlar uchun 477 million dollar qiymatidagi kapital qoʻyilmalar yoʻnaltirildi. Bu, oʻz navbatida, 240 kilometrlik temir yoʻl tarmoqlarini modernizatsiya qilish, oʻz kuchimiz bilan 550 ta yuk va 30 ta yoʻlovchi tashiydigan vagon ishlab chiqarish imkonini berdi.

Oʻtgan yili mamlakatimiz janubiy viloyatlarining iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishda katta ahamiyat kasb etadigan Maroqand-Qarshi va Qarshi-Termiz temir yoʻl uchastkalarini elektrlashtirish ishlari faol olib borildi.

2013-yilda xitoylik sheriklarimiz bilan hamkorlikda transport kommunikatsiyasi sohasida mamlakatimiz uchun ulkan strategik ahamiyatga ega boʻladigan yana bir yirik loyihani amalga oshirishni boshladik. Bu oʻrinda soʻz Angren-Pop yoʻnalishida elektrlashtirilgan yangi temir yoʻlni va 19 kilometrlik temir yoʻl tunnelini qurishni koʻzda tutadigan loyiha haqida bormoqda.

Bu tunnel Oʻzbekistonning markaziy qismini Fargʻona vodiysi viloyatlari bilan ishonchli bogʻlash, mamlakatimiz hududida yagona temir yoʻl transport tizimini shakllantirish boʻyicha ishlarni yakuniga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, u Yevropa qitʻasini Osiyo bilan bogʻlaydigan transmilliy transport yoʻlagining muhim boʻgʻini boʻlib xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda Oʻzbekiston oldida bir qancha muammolar mavjud, ularni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb topdik:

-xorijiy investorlarga va milliy ishlab chiqaruvchilarga bir xil imkoniyat, imtiyozlar yaratish;

-milliy buxgalteriya hisobini Xalqaro Moliyaviy Hisobi Standartlariga yanada yaqinlashtirish;

-qo'shma korxonalarni tashqi bozorlarga yo'naltirilgan faoliyatini jadallashtirish, valyuta oqimini barqarorlashtirish. Bunga rag'batlantirish uchun turli xil kommunal xizmatlardan qisman ozod etish va soliq, yig'im, bojxona to'lovlaridan to'liq ozod etish orqali erishish;

-investitsiyalarning hududiy bir yoqlamalik xususiyatini oldini olish maqsadida, viloyatlarni rivojlanganlik darajasi bo'yicha 3 guruhga bo'lib, sust rivojlangan regionlarga investorlar uchun ko'proq manfaatdorlik, moyillik yaratish;

-erkin eksport zonalarini amaliyotini o'rganish va ularni yurtimizda joriy qilishga erishish.

II BOB IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING TAHLILI

2.1. “Qarshi ta'mirlash zavodi” MCHJning tashkiliy iqtisodiy asoslari va boshqaruv strukturasi.

Jamiyatning to'liq (kirilcha va lotin alifbosida) nomi:

- “Qarshi ta'mirlash zavodi” mas'uliyati cheklangan jamiyati.
- “Qarshi ta'mirlash zavodi” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Jamiyatning qisqartirilgan nomi:

- “Qarshi ta'mirlash zavodi” MCHJ.
- “Qarshi ta'mirlash zavodi” MCHJ.

Jamiyatning yuridik manzilgohi: Indeks: 180106, O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 7-uy. “Qarshi ta’mirlash zavodi” mas’uliyati cheklangan jamiyati (bundan buyon “Jamiyat” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda jamiyat ta’sischilarining 2013 yil 10 iyuldagi ta’sis yig‘ilish qarori va ta’sis shartnomasiga asosan tashkil etilgan.

Quyidagilar jamiyatning ishtirokchilari hisoblanadilar:

№	Ishtirokchilarning familiyasi, ismi	Manzilgohi	Pasport ma’lumoti
1.	Jo‘rayev Komil Xudayberdiyevich	Qarshi shahar, Kunbotar ko‘chasi, 2 - uy	AA 0530089 13.12.2012 yil Qashqadaryo viloyati IIB
2.	Safarova Salima Nazirovna	Qarshi shahar, Kunbotar ko‘chasi, 2 - uy	SM 2337940 06.02.2010 yil Qarshi shahar IIB
3.	Jo‘rayev Qodir Xudayberdiyevich	Qarshi tumani, Yertepa qishloq fuqarolar yig‘ini, Niyozmudin qishlog‘i	SM 0936146 04.06.1999 yil Qarshi tuman IIB
4.	Davlatov Farxod Safarovich	Qarshi shahar, Remzavod ko‘chasi, 4-uy, 2-xona	SM 1717537 25.01.2006 yil Qarshi shahar IIB
5.	Batirov Lutfulla	Qarshi shahar, Xlopkovaya ko‘chasi,	SM 0018454 05.12.1995 yil

		13-uy	Qarshi shahar IIB
6.	Tuxtabayev Sharafetdin Axtamovich	Qarshi shahar, Uzumzor ko'chasi 26- uy	SM 1455338 09.12.2003 yil Qarshi shahar IIB

Jamiyat ishtirokchilari tarkibi o'zgarishi, shu jumladan kungilli asosida jamiyat tarkibiga kiruvchi, uning nizomini tan oluvchi, qoida bo'yicha ta'sis badali bergan manfaatdor korxonalar, birlashmalar, assosatsiyalar, aksiyadorlik jamiyatlari va jismoniy shaxslar hisobiga kengaytirish mumkin.

Jamiyat yuridik shaxs hisoblanib, amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va mazkur Nizomga asosan o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Jamiyat o'zi tomonidan tasdiqlangan maxsus Nizomlar asosida faoliyat ko'rsatuvchi filiallar tashkil etishi, vakolatxonalar ochishi mumkin. Jamiyat yuridik shaxs maqomiga ega shu'ba va tobe korxonalarga ega bo'lishi mumkin. Jamiyat va ushbu korxonalar o'rtasidagi uzaro munosabatlar amaldagi qonun hujjatlari va mazkur nizomiga ko'ra tartibga solinadi.

Jamiyat o'z balansi, bankda hisob raqamlariga hamda davlat tilida o'z firma nomi to'liq ko'rsatilgan muxr, nomi va joylashgan manzili tuliq ko'rsatilgan tamg'aga ega.

Jamiyat, shuningdek, firma blankasi, emblema, tovar belgisi va boshqa belgilarga ega.

Jamiyat yuridik shaxs huquqini qonuniy ro'yxatdan o'tgandan so'ng oladi va faoliyat ko'rsatish muddati chegaralanmaydi.

Jamiyat amaldagi qonunchilik bo'yicha da'vo qilish mumkin bo'lgan o'ziga tegishli barcha mulk yuzasidan o'z majburiyatlari bo'yicha javob beradi. Davlat va uning organlari jamiyatning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi, huddi

shuningdek jamiyat ham davlat uning organlari majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

Jamiyat shartnomalar tuzadi, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar oladi hamda majburiyatlari bo'ladi, sudlarda da'vogar va javobgar bo'ladi.

Jamiyat ishtirokchilari o'z xissalari doirasida jamiyat majburiyatlari, shu jumladan ta'sis shartnomasi va Nizomida nazarda tutilgan tartibda berilgan ulush qismi bo'yicha javobgar bo'ladilar.

Jamiyat o'z ishtirokchilarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi.

Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi:

- O'zbekiston Respublikasi tovarlar va xizmatlar bozorini to'ldirish;
- yangi ish joylarini tashkil etish evaziga aholining bandlik muammosini hal etishda o'z xissasini qo'shish;
- o'z faoliyati natijasida foyda olish.

Jamiyat faoliyatining mavzulari quyidagilar sanaladi:

- texnikalar uchun bolt, gayka, shurup, vint, metall setka va boshqa buyumlar ishlab chiqarish;
- qishloq xo'jalik texnikalariga xizmat ko'rsatish hamda ularning ta'minoti bilan shug'ullanish;
- dvigatellarni ta'mirlash;
- elektr dvigatellarni ta'mirlash;
- idish yemkostlar yasash;
- cho'yan buyumlar quyish;
- xalq iste'mol mollarini yasab chiqarish;
- texnika almashtirish punkti;

- texnika, extiyot qismlar, moddiy texnika materiallari sotish, do‘konlar ochish;
- kimyoviy mahsulotlar bilan savdo-sotiq qilish;
- umumiy ovqatlanish tarmoqlari (oshxona, choyxona, kafe, bar va restoranlarni) tashkil etish, nonvoyxona, gusht do‘konlarini ochish va ishlatish;
- sanoat va xalq iste’mol mollarini ishlab chiqarish;
- tikuvchilik, tikuv va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- eksport-import va vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
- sharbat, yaxna ichimliklar va muzqaymoq ishlab chiqarish;
- non va qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat;
- maishiy xizmat uylari, go‘zallik salonlari, atelye modalar, shuningdek boshqa xizmat turlarini tashkil qilish;
- kino va suratxonalar, ovoz yozish studiyalarini tashkil qilish;
- avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish;
- mashina mexanizmlar, texnika ehtiyot qismlar savdosi;
- avtomobillarga yoqilg‘i quyish stansiyalarini tashkil etish;
- shartnoma asosida yuridik va jismoniy shaxslarga avtotransport xizmati ko‘rsatish, yuk va odam tashish avtoxizmatlari;
- tabiiy resurslardan foydalanish huquqini olish, atrof muhitni ifloslantirish norma qoidalariga rioya etish va tabiatni muhofaza qilish qonunlarini bajarilishini ta’minlash;
- qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;

- chorvachilik mahsulotlari, ya'ni gusht va sutni qayta ishlash va sotish;
- asalarichilik, parrandachilik va baliqchilik bilan shug'ullanish;
- yog'ochga ishlov berish va mebel mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;
- teri va jun mahsulotlarini yig'ish, ularga ishlov berish va ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotish;
- yordamchi xo'jaliklar tashkil etish va shu xo'jalikda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish, ularni saqlash, qayta ishlash va sotish;
- fuqarolarni shaxsiy tamoqalarida, fermer (dehqonchilik) xo'jaliklarida, ijara, davlat va jamoa xo'jaliklarida yetishtirilgan kartoshka, sabzavot, poliz mahsulotlari, meva va rezavor mevalar, don mahsulotlari, chorvachilik mahsulotlari va xom ashyoni tayyorlash va sotish;
- tegirmon, juvozlar tashkil etish va ulardan mahsulotlar ishlab chiqarish;
- aholiga nusxa kuchirish uskunasi xujjatlarni ko'paytirish xizmati;
- mehmonxonalar va dam olish maskanlarini tashkil qilish va ularga pullik xizmat ko'rsatish.

Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab etiladigan faoliyat turlari qonunchilikda belgilangan tartibda ruxsatnoma olingach amalga oshiriladi.

Jamiyat ishtirokchilari:

- amaldagi qonun va jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish;
- qonun hujjatlarida va jamiyat ta'sis xujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa xujjatlari bilan tanishish;
- foydani taqsimlashda ishtirok etish;

- jamiyatning nizom jamg'armasidagi (nizom kapitalidagi) o'z ulushini yoxud uning bir qismini O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarida va ushbu nizomda nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga sotish yoki o'zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;

- jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'iy nazar Qonunda va jamiyatning ta'sis xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyatdan chiqish;

- jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob kitob qilingandan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish;

Jami ulushlari jamiyat nizom jamg'armasining (nizom kapitalining) kamida 10 foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari o'z majburiyatlarini qupol buzayotgan yoxud o'z xarakatlari (xarakatsizligi) bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtiradigan ishtirokchisini jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga haqlidirlar.

Jamiyat ishtirokchilari qonun xujjatlarida va jamiyatning ta'sis xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlari:

- jamiyat ta'sis xujjatlariga rioya etish;

- jamiyat ta'sis xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda ulushlarni kiritish;

- jamiyat faoliyati tug'risidagi sir tutilgan axborotlarni oshkor etmaslik, oshkor etilmaydigan axborotlar turkumiga barcha tijorat ishlari, shartnomalar tuzilishi, xizmatlar ko'rsatish, tezkor va boshqa jamiyat faoliyati to'g'risidagi axborotlar kiradi;

- jamiyat faoliyatga ta'alluqli bo'lgan axborotlar konfidensialligini ta'minlash va shu axborotlar tarqalishining oldini oluvchi barcha imkoniyat choralari kurish;

- O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarida va jamiyat ta'sis xujjatlarida kuzda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

Mazkur Nizomga muvofiq jamiyat o'ziga tegishli mol-mulkdan mustaqil ravishda foydalanadi.

Jamiyat mol-mulki va mablag'lari Nizom jamg'armasidagi ulushlariga mutanosib ravishda ishtirokchilarga tegishlidir.

Jamiyat mol-mulkini shakllantirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- qatnashchilar ulushlari;
- fuqarolar, shuningdek, muassasalar, korxonalar va jamoat birlashmalarining ixtiyoriy ulushlari va ajratmalari;
- qonun xujjatlari bilan ruxsat etilgan ijara va boshqa to'lovlar, tushumlar, beg'araz va xayriya badallari;
- amaldagi qonun xujjatlarida man etilmagan boshqa tushumlar.

2.1.1-Jadval

Qarshi shahar ta'mirlash zavodi moliyaviy mablag'lari harakati tahlili

[illegible]

Boshlangich (kayta tiklash) qiymati	44620,0	45310,0	46000,0	44620,0	45310,0	46000,0	101,52 28	690,0	103,09 28	1380,0
Eskirish summasi										
Koldik (balans) qiymati	44620,0	45310,0	46000,0	44620,0	45310,0	46000,0	101,52 28	690,0	103,09 28	1380,0
1 bo'lim buyicha jami	44620,0	45310,0	46000,0	44620,0	45310,0	46000,0	101,52 28	690,0	103,09 28	1380,0
II. Joriy aktivlar										
Tovar-moddiy zaxiralar jami shu jumladan:	96 413,0	99 490,0	102 567 ,0	195 738, 0	201 985, 0	208 231 ,0	103,09 23	6246,0	106,38 25	12493,0
Tovarlar	96 413,0	99 490,0	102 567 ,0	195 738, 0	201 985, 0	208 231 ,0	103,09 23	6246,0	106,38 25	12493,0
Ta'sischi larning ustav kapitaliliga ulushlar	40 595,0	41 890,0	43 185, 0	40 595,0	41 890,0	43 185, 0	103,09 14	1295,0	106,38 01	2590,0

bo'yicha karzi										
Pul mablaglari, jami shu jumladan				1 128,0	1 164,0	1 200,0	103,09 28	36,0	106,38 3	72,0
Kassadagi pul mablaglari				1 128,0	1 164,0	1 200,0	103,09 28	36,0	106,38 3	72,0
II bo'lim buyicha jami	233421,0	240870, 0	248319, 0	434327,0	448188,0	462047, 0	103,09 13	13859,0	106,38 23	27720,0
Balans aktivi buyicha jami	278041,0	286180, 0	294319, 0	478947,0	493498,0	508047, 0	102,94 81	14549,0	106,07 58	29100,0
PASSIV										
I. Uz mablag'lari manbalari										
Ustav kapitali	61 570,0	63 535,0	65 500, 0	61 570,0	63 535,0	65 500, 0	103,09 28	1965,0	106,38 3	3930,0
Taqsimlangan foyda	121	22	22	162	167	172	103,09	5171,28	106,38	10342,5

(koplanmagan zarar)	395,34	078,17	761,0	033,44	204,72	376,0	28		3	6
Maksadli tushumlar										
I bo'lim bo'yicha jami	182965,34	187613,17	188261,0	223603,44	230739,72	237876,0	103,0928	7136,38	106,383	14272,56
II. Majburiyatlar										
Joriy majburiyatlar, jami	9 860,60	10 175,30	10 490,10	17 738,80	18 303,90	18 870,00	103,0928	566,1	106,377	1131,2
Maksadli davlat jamgarmalariga tulovlar buyicha karz	366,79	378,50	390,20	630,74	650,87	670,50	103,016	19,63	106,3037	39,76
Kiska muddatli bank kreditlari	9 495,0	9 798,0	10 101,0	17 108,0	17 654,0	18 200,0	103,09	545,5	106,3801	1091,5
II bo'lim buyicha jami	29584,39	20351,8	20981,2	35477,54	36608,77	37740,5	103,0914	1131,73	106,3786	2262,96
Balans passivi buyicha	212549,7	207964,	209242,	259080,9	267348,4	275 616	103,09	10268,0	106,38	16535,5

jami	3	97	2	8	9	,5	26		24	2
------	---	----	---	---	---	----	----	--	----	---

Malumotlarga ko'ra 2012-yilgi balans aktivining I- bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 44620,0 so'm bo'lgan, davr oxirida ham 44620,0 so'm bo'lgan. Balans aktivining II-bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 233421,0 so'm bo'lgan, davr oxiriga kelib 200906,0 so'mga oshgan holda 434327,0 so'm bo'lgan. Balans aktivi boyicha jami davr boshida 278041,0 so'm bo'lgan, davr oxiriga kelib 200906,0 so'mga oshgan holda 478947,0 so'm bo'lgan. Balans passivining I-bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 182965,34 so'm bo'lgan, davr oxiriga kelib 40638,1 so'm oshgan holda 223603,44 so'm bo'lgan. Balans passivining II-bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 29584,39 so'm bo'lgan davr oxiriga kelib 5893,15 so'mga oshgan holda 35477,54 so'm bo'lgan. Balans passive boyicha jami hisobot davri boshida 212549,73 so'm bo'lgan davr oxiriga kelib 64269,25 so'mga oshgan holda 259080,98 so'm bo'lgan.

Malumotlarga ko'ra 2013-yilgi balans aktivining I- bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 45310,0 so'm bo'lgan, davr oxida ham 45310,0 so'm bo'lgan. Balans aktivining II-bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 240870,0 so'm bo'lgan, davr oxiriga kelib 207318,0 so'mga oshgan holda 448188,0 so'm bo'lgan. Balans aktivi boyicha jami davr boshida 286180,0 so'm bo'lgan, davr oxiriga kelib 207318,0 so'mga oshgan holda 493498,0 so'm bo'lgan. Balans passivining I-bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 187613,17 so'm bo'lgan, davr oxiriga kelib 43126,55 so'm oshgan holda 230739,72 so'm bo'lgan. Balans passivining II-bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 20351,8 so'm bo'lgan davr oxiriga kelib 16256,97 so'mga oshgan holda 36608,77 so'm bo'lgan. Balans passive boyicha jami hisobot davri boshida 207964,97 so'm bo'lgan davr oxiriga kelib 59383,52 so'mga oshgan holda 267348,49 so'm bo'lgan.

Malumotlarga ko'ra 2014-yilgi balans aktivining I- bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 46000,0 so'm bo'lgan, davr oxirida ham 46000,0 so'm bo'lgan. Balans aktivining II-bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 248319,0 so'm bo'lgan, davr oxiriga kelib 213728,0 so'mga oshgan holda 462047,0 so'm bo'lgan. Balans aktivi boyicha jami davr boshida 294319,0 so'm bo'lgan, davr

oxiriga kelib 213728,0 so'mga oshgan holda 508047,0 so'm bo'lgan. Balans passivining I-bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 188261,0 so'm bo'lgan, davr oxiriga kelib 49615,0 so'm oshgan holda 237876,0 so'm bo'lgan. Balans passivining II-bo'limi boyicha jami hisobot davri boshida 20981,2 so'm bo'lgan davr oxiriga kelib 6759,3 so'mga oshgan holda 37740,5 so'm bo'lgan. Balans passive boyicha jami hisobot davri boshida 209242,2 so'm bo'lgan davr oxiriga kelib 66374,3 so'mga oshgan holda 275616,5 so'm bo'lgan.

2.2. Korxonada aylanma mablag'larni foydalanish ko'rsatkichlari tahlili.

Jamiyat o'z xo'jalik faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtiradi va bozor iqtisodiyoti asosida xizmatlariga real bozor talablaridan kelib chiqqan holda narxlarni belgilaydi.

Jamiyat mustaqil ravishda amaldaga qonun xujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda buxgalterlik hisobi, moliyaviy va statistik hisobotni amalga oshiradi.

Moddiy texnika bazasini asosiy va aylanma mablag'lar, shuningdek boshqa moddiy boyliklar va moliyaviy zahiralar tashkil etadi. Jamiyatning o'z mablag'lari uning tuliq tasarrufida bo'ladi va qonunlarda kuzda tutilgan hollardan tashqari olib quyilmaydi.

Jamiyatning yakkaboshchilik asosida ijro etuvchi organi (rais) bo'yrug'iga asosan xodimlar jadvalini, mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish tartibini joriy etadi.

Mustaqil ravishda odamlarning kasb va malakasi saviyasini belgilaydi.

Belgilangan muddatlarda soliq va statistika organlariga olingan daromadlar to'g'risida qonunchilikda belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etadi.

Jamiyatda daromad va xarajatlarni hisoblashning to'g'riligi ustidan nazorat O'zbekiston qonun xujjatlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Jamiyat buxgalterlik hisobini tashkil qilish uning holati va aniqligi, tegishli organlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotni o'z vaqtida taqdim etish

bo'yicha javobgarlik jamiyatning yakkaboshchilik asosida ijro etuvchi organi (rais)ga yuklatiladi.

Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan yillik hisobotlardagi, ya'ni buxgalteriya balansi, daromadlar va zararlar to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligi jamiyatning taftish komissiyasi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Barcha ma'muriy to'lovlar va soliqlar tulangandan so'ng jamiyat ixtiyoridagi qolgan mablag'lar jamiyat daromadlarini tashkil etadi.

Jamiyat amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq daromaddan barcha soliqlar va boshqa majburiy tulovlarni amalga oshiradi.

Jamiyatda quyidagi jamg'armalar shakllantiriladi:

- jamiyat Nizom jamg'armasining 15 foizi miqdorida zahira jamg'armasi tashkil qilinadi. Zahira jamg'armasi belgilangan miqdorga yetkuncha har yili sof foydadan 5 foizlik ajratmalar hisobiga shakllantiriladi, zahira jamg'armasi zararlarni qoplash, obligatsiyalar haqini to'lash va jamiyat nizom jamg'armasidagi ulushni (ulushning bir qismini) olishga muljallangan;
- jamiyat moliyaviy xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa jamg'armalar va ularning miqdori ishtirokchilar umumiy yig'ilishining qarori bilan belgilanadi.

Jamiyat amaldagi qonun xujjatlarida man qilinmagan narxlar hamda tariflar bo'yicha pul o'tkazish yo'li yoki naqd pulga xizmatlar ko'rsatadi va daromad oladi.

Jamiyat yilning har choragida, yarim yilda bir marta yoki bir yilda bir marta o'zining sof foydasini jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Jamiyatning jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanadigan foydasi qismini aniqlash to'g'risidagi qaror jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Jamiyat foydasining uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash uchun muljallangan qismi

ishtirokchilarining nizom jamg'armasidagi ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Jamiyat moliya – xo'jalik faoliyati natijasida vujudga kelgan ziyonlar jamiyatning zahira jamg'armasi hisobidan, u yetishmagan taqdirda jamiyatning mol-mulki yoki ishtirokchilarining maqsadli qushimcha ulushlari hisobidan qoplanadi.

Jamiyat foydasini jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlashda amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan holatlarda cheklashlar amalga oshiriladi.

2.2.1-Jadval

Qarshi ta'mirlash zavodi moliyaviy natijalar to'g'risidagi ma'lumot (2014 yil)

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		Foizda	Summada
		daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)	daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)		
	1	3	4	5	6		
1	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	915 344,30	x	992 366,70	x	108,414582	77 022,40
2	Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	x	778 042,70	x	843 511,70	108,414577	65 469,00
3	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	137 301,60	-	148 855,00	-	108,414614	11 553,40
4	Davr xarajatlari, jami, shu jumladan:	x	63 862,10	x	69 240,00	108,421114	5 377,90

5	Sotish xarajatlari		7 367,20		9 923,00	134,691606	2 555,80
6	Ma'muriy xarajatlar	x	56 494,70	x	59 317,00	104,99569	2 822,30
7	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	73 439,50	-	79 615,00	-	108,408962	6 175,50
8	Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	73 439,50	-	79 615,00	-	108,408962	6 175,50
9	Daromad (foyda) solig'ini tulagunga kadar foyda (zarar)	73 439,50	-	79 615,00	-	108,408962	6 175,50
10	Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	73 439,50	-	79 615,00	-	108,408962	6 175,50

Jadvaldan ko'rinib turibdiki 2013-yil mahsulotlarni sotishdan sof tushum 915344,30 so'm bo'lgan 2014-yilda 77022,40 so'mga oshgan holda 992366,70 so'm bo'lgan. Sotilgan mahsulotlarning tannarxi 2013-yil 778042,70 so'm bo'lgan, 2014-yil 65469,00 so'mga oshgan holda 843511,70 so'm bo'lgan. Mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi 2013-yil 137301,60 so'm bo'lgan, 2014-yil esa 11553,40 so'mga oshgan holda 148555,00 so'm bo'lgan. Davr xarajatlari jami 2013-yilda 63862,10 so'm bo'lgan 2014-yil esa 5377,90 so'mga oshgan holda 69240,00 so'm bo'lgan. Asosiy faoliyatning foydasi 2013-yilda 73459,50 so'm bo'lgan 2014-yil esa 6175,50 so'mga oshgan holda 79615,00 so'm bo'lgan. Umum xo'jalik faoliyatining foydasi 2013-yilda 73439,50 so'm bo'lgan, 2014-yil esa 6175,50 so'mga oshgan holda 79165,00 so'm bo'lgan. "Janub Javohiri" xususiy fermasi hisobot davrining sof foydasi 2013-yil 73439,70 so'm bo'lgan, 2014-yil esa 6175,50 so'mga oshgan holda 79165 so'm bo'lgan.

2.2.2-Jadval

Qarshi ta'mirlash zavodi moliyaviy natijalar to'g'risidagi ma'lumot (2013 yil)

Ko'rsatkichlar nomi	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		Foizda	Summada
	daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)	daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)		
1	3	4	5	6		
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	869 577,09	x	942 748,37	x	108,4146	73 171,28
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	x	778 042,70	x	843 511,70	108,4146	65 469,00
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	130 436,52	x	141 412,25	x	108,4146	10 975,73

Davr xarajatlari, jami , shu jumladan:	x	60 669,00	x	65 778,00	108,4211	5 109,00
Sotish xarajatlari		6 998,84		9 426,85	134,6916	2 428,01
Ma'muriy xarajatlar	x	53 669,97	x	56 351,15	104,9957	2 681,18
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	69 767,53	x	75 634,25	x	108,409	5 866,72
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	69 767,53	-	75 634,25	-	108,409	5 866,72
Daromad (foyda) soligini tulagunga kadar foyda (zarar)	69 767,53	-	75 634,25	-	108,409	5 866,72
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	69 767,53	-	75 634,25	-	108,409	5 866,72

Jadvaldan ko'rinib turibdiki 2012-yil mahsulotlarni sotishdan sof tushum 869577,09 so'm bo'lgan 2013-yilda 73171,28 so'mga oshgan holda 942748,37 ming so'm bo'lgan. Sotilgan mahsulotlarning tannarxi 2012-yil 778042,70 so'm bo'lgan, 2013-yil 65469,00 so'mga oshgan holda 843511,70 so'm bo'lgan. Davr xarajatlari jami 2012-yilda 60669,00 so'm bo'lgan 2013-yil esa 5109,00 so'mga oshgan holda 65778,00 so'm bo'lgan. "Janub Javohiri" xususiy fermasi hisobot davrining sof foydasi 2012-yil 69767,53 so'm bo'lgan, 2013-yil esa 5866,72 so'mga oshgan holda 75634,25 so'm bo'lgan. Umuman olganda korxona daromadi o'tgan yilga nisbatan 108.4 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2.2.3-Jadval

Qarshi ta'mirlash zavodi moliyaviy natijalar tugrisidagi ma'lumot (2012 yil)

Kursatkichlar nomi	Utgan yilning shu davrida		Xisobot davrida		Foizda	Summada
	daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)	daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)		
1	3	4	5	6		
Maxsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	823 809,90	x	893 130,70	x	108,4147	69 320,80
Sotilgan maxsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	x	700 238,43	x	759 176,70	108,4169	58 938,27
Maxsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	123 571,60	-	133 970,00	-	108,4149	10 398,40
Davr xarajatlari, jami, shu	x	57 476,10	x	62 316,00	108,4207	4 839,90

jumladan:						
Sotish xarajatlari		6 631,20		8 931,00	134,6815	2 299,80
Ma'muriy xarajatlar	x	50 845,70	x	53 386,00	104,9961	2 540,30
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	66 096,50	x	71 654,00	x	108,4082	5 557,50
Umumxujalik faoliyatining foydasi (zarari)	66 096,50	x	71 654,00	x	108,4082	5 557,50
Daromad (foyda) soligini tulagunga kadar foyda (zarar)	66 096,50	x	71 654,00	x	108,4082	5 557,50
Xisobot davrining sof foydasi (zarari)	66 096,50	x	71 654,00	x	108,4082	5 557,50

Jadvaldan ko'rinib turibdiki 2011-yil mahsulotlarni sotishdan sof tushum 823809,90 so'm bo'lgan 2012-yilda 69320,80 so'mga oshgan holda 893130,70 so'm bo'lgan. Sotilgan mahsulotlarning tannarxi 2011-yil 700238,43 so'm bo'lgan, 2012-yil 58938,27 so'mga oshgan holda 759176,70 so'm bo'lgan. Davr xarajatlari jami 2011-yilda 57476,10 so'm bo'lgan 2012-yil esa 4839,90 so'mga oshgan holda 62316,00 so'm bo'lgan. "Janub Javohiri" xususiy fermasi hisobot davrining sof foydasi 2011-yil 66096,50 so'm bo'lgan, 2012-yil esa 5557,50 so'mga oshgan holda 71654,00 so'm bo'lgan.

III-BOB IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.

3.1. Investitsion faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslublarining o'ziga xos xususiyatlari

Korxona miqyosida investitsion faoliyatni boshqarish kapital kiritishning eng samarali shaklini tadbiq etishga yo'nalgan bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda investitsiyalarni boshqarish bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Investitsiyalarni boshqarishning birinchi bosqichi – bu mamlakat investitsion iqlimini tahlil qilish. U quyidagi prognozlarni o'z ichiga oladi:

1. Yalpi ichki mahsulot, milliy daromad va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi
2. Milliy daromadning taqsimlanish dinamikasi
3. Xususiylashtirish jarayonlarining rivojlanishi
4. Investitsion faoliyatni davlat tomonidan nazorat qilinishi
5. Investitsiya bozorlari rivojlanishi.

Ikkinchi bosqich – iqtisodiy va moliyaviy rivojlanish strategiyasini hisobga olgan holda korxona investitsion faoliyatining konkret yo'nalishini tanlash. Bu bosqichda korxona o'z investitsion faoliyatining tarmoq yo'nalishini hamda faoliyatning turli bosqichlaridagi investitsiyalar shaklini aniqlaydi. Buning uchun iqtisodiyotning turli tarmoqlari investitsion jozibadorligi (konyukturasi, dinamikasi va bu tarmoq mahsulotlariga bo'lgan talab ustuvorligi) hamda mintaqa jozibadorligi (joylashgan o'rni, transport tarmog'ining rivojlanganligi, ijtimoiy

sharoitlar tavsifi, tadbirkorlik infrastrukturasini rivoj, tabiiy-iqlin sharoitlari va h.k) o'rganib chiqiladi.

Uchinchi bosqich – investitsiyalashning aniq obektlarini tanlash. Bu investitsion bozor taklifi tahlilidan boshlanadi.

To'rtinchi bosqich – investitsiyalar likvidligini aniqlash. Investitsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarish korxonalari alohida obektlarini investitsiyalashda investitsion iqlimning o'zgarishi natijasida kutilayotgan daromad pasayishi mumkinligini inobatga olishlari kerak. Shu sababli bu o'zgarishlarning barchasini sinchkovlik bilan kuzatib borish va o'z vaqtida bu investitsion loyihadan chiqish hamda kapitalni reinvestitsiya qilish qarorini qabul qilish zarur. Bunday vaziyat sodir bo'lishi ehtimolligini hisobga olgan holda har bir obekt uchun eng avvalo investitsiyalar likvidlik darajasini baholash va ularning ichidan eng katta likvidlik darajasiga ega bo'lganini tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Beshinchi bosqich – investitsion resurslarning zaruriy hajmi va ularni shakllantirish manbaalarini aniqlash. Bu bosqichda rejalashtirilgan yo'nalishda investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan investitsion resurslarga bo'lgan umumiy talab prognoz qilinadi.

Sanab o'tilgan tadbirlarni amalga oshirish natijasida korxona tomonidan amalga oshiriladigan investitsion loyihalar yig'indisini o'zida aks ettiruvchi investitsion portfel shakllanadi.

Investitsion faoliyatni boshqarishning yakuniy bosqichi – bu investitsion risklarni boshqarishdir. Bu bosqichda, avvalo, korxona investitsion jarayonda to'qnash kelishi mumkin bo'lgan risklarni aniqlashi hamda ularni minimallashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqishi zarur.

Investitsion loyihalarni boshqarish mexanizmi loyihani boshqarish tamoyillari, resurslar va risklarni boshqarishni ta'minlovchi uslublar va vositalar, boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi va algoritmi hamda samaradorlik ko'rsatkichini o'ziga higaoladi.

Investitsion loyihani boshqarish murakkab vazifa hisoblanadi. Loyihani joriy etish uchun tuzilgan ishchi guruh funksional bo'limlarda yechiladiganlardan farqli yangi masalalarni yechadi.

Ishchi guruh va butun tashkilot o'rtasida uzviy aloqa mavjud bo'lib, loyihani joriy etish mavjud bo'limlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi hamda natija mavjud strukturaga integratsiya qilinishi kerak. Loyihani boshqarishda menejer quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

- selektiv tanlash tamoyili – ustuvor yo'nalishlar, innovatsion firmalar ko'magi va novatorlarni tanlashda o'z aksini topadi;
- maqsadli yondashuv. Innovatsiyalar yaratishga talab va ularni joriy etish imkoniyatlari o'rtasida o'ranatilgan aloqalarni nazarda tutadi. Bunda aniq loyihalarning yakuniy maqsadlari talablarga, oraliq maqsadlar esa bu loyihalarning yakuniy maqsadlariga yo'naltiriladi;
- loyihani boshqarish siklining bir butunligi tamoyili;
- innovatsion va loyihani boshqarish jarayonlarining bosqichliligi tamoyili;
- innovatsion jarayonlarning ierarxiklik tamoyili (faoliyatning barcha bosqichlari bir-biri bilan muvofiqlashtiriladi);
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ko'p variantlilik tamoyili;
- tizimlilik tamoyili (loyihani tashkil qilish uchun zaruriy yalpi chora-tadbirlar – tashkiliy, ma'muriy va boshqalar ishlab chiqiladi);
- ta'minlanganlik yoki muvozanatlilik tamoyili (barcha chora-tadbirlar zaruriy resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi shart);

Investitsion loyihalarni boshqarish quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

- investitsion loyihaning tarkibi va hajmi (bajarilishi kerak bo'lgan ishlar va ularga qoyiladigan talablarni aniqlab beradi);
- ishlar strukturasi (investitsion loyihaning muddati va resurslarga bo'lgan talabini aniqlab beradi);
- investitsion loyiha sifati (maqsadga erishish qiymatini aniqlab beradi)
- investitsion loyiha riski (tasidiqlangan muddat va budget chegarasida maqsadga erishish imkoniyatlarini tavsiflaydi);

– investitsion loyiha qiymati (zarur hajmlar va moliyalashtirish manbaalarini aniqlab beradi. Bunda risklarni boshqarish uchun rezerv ham o'z ifodasini topishi kerak);

– investitsion loyiha kommunikatsiyasi (bu boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlab beradi).

Investitsion loyihalarni boshqarishning barcha bosqichlarida loyiha rahbari va loyihalarni boshqarish bo'limi tomonidan ularni joriy etish monitoringi olib boriladi.

Tashkili tuzilmaq uyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: ishlar kuratori, ishlarni ijr oetuvchilardan tashkil topganb oshqaruv komandasi (ishchi guruh, loyihalashtirish bo'limi) va loyihalarni boshqarish bo'limi, loyiha kuratori, boshqaruv kengashini o'z ichiga oluvchi boshqaruv tuzilmasi.

Qaysi korxonani olmaylik unda korxonani tashkil qilish bosqichida asosiy va aylanma mablag'larni shakllantirish, mavjud moddiy-texnik bazani yangilash, ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi faoliyat turlarini o'zlashtirish, turli xarakterdagi foydali investitsiyalarni kiritish orqali korxona daromad larine oshirish kabilar bilan bog'liq bo'lgan investitsion faoliyat yuritish majburiyati bilan qarshilashadi.

Investitsion qarorlarni qabul qilish moliyaviy resurslarning cheklanganligi, invetitsiyalarning taklif qilinayotgan ko'rinishi va qiymati; har bir investitsiyaning variantlari xilma-xilligi; qaror qabul qilishda vujudga keladigan risklar; investitsiya obektlarining turli xildagi investitsion sifatlari; korxona kapitalining o'ziga xos xususiyatlari va faoliyatning ichki shartlari; korxona faoliyatining tashqis hartlari, bular qatorida bozor konyukturasi, mamlakat iqtisodiy holati va qonunchilik bazasi, siyosiy vaziyat kabi omillarni batafsil ko'ribchiqish bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan ko'plab jihatlarni hisobga olgan holda taklif qilinayotgan investitsiyalar hajmi va bo'lg'usi daromadni baholash va taqqoslash investitsion qarorlarni qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. Korxona investitsion faoliyatni olib borar ekan, u kiritilgan investitsiyalarning davomiy daromad keltirib turishini maqsad qiladi. Bu esa korxona investitsion portfelini

shakllantirish va optimallashtirish yuzasidan investitsion tahlil qilish majburiyatini vujudga keltiradi.

Investitsion tahlilning umumiy tamoyillari korxona kapitali bahosi va faoliyati ko'rsatkichlarini nazarda tutilgan loyihaning kutilayotgan foydalilik va rentabellik ko'rsatkichlari bilan taqqoslash va bu loyiha investitsiya obekti sifatida qaralishi mumkimi yoki yo'qligi yuzasidan maqbul qaror qabul qilishni ko'zda tutadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda investitsion loyihaning kiritilgan investitsiyalarning xarid qiymatini saqlab qolish va ularning yetarlicha o'sish sur'atlarini ta'minlay olish potensial imkoniyatlariga urg'u beriladi. Tahlil investitsion loyiha samaradorligining integral ko'rsatkichlarini aniqlash asosiga quriladi.

Samaradorlikni niqlashda loyiha hisob kitob davrining alohida qadami bo'lgan xarajatlar va natijalar ustida operatsiyalar bajariladi. Iqtisodiyotning asosiy tamoyillariga ko'ra turli vaqtlardagi xarajatlar erishilgan natijalar kabi vatga bo'g'liq ravishda farqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, bugungi bir so'm bir yildan keyin qo'lga kiritilgan yoki xarj qilinganidan ko'ra qiymatliroqdir. Bu fakt faqat inflyatsiya bilangina bog'liq bo'lib qolmasdan, balki xo'jalik oborotiga jalb qilingan pul mablag'lari stabil iqtisodiyot sharoitida ma'lum miqdordagi daromad keltirishini ham o'zida aks ettiradi. Bu xaqiqat isbot etilishini taqozo qilmaydi, va har qanday investitsiya loyihalarini iqtisodiy tahlil qilishining asosidir. Shu sababli, ma'lum vaqtdagi real pul mablag'lari oqimlari yig'indaisini hisoblash ular solishtirsa bo'ladigan shaklga ya'ni bir xil vaqt lahzasiga keltirilishi kerak. hisob davrining boshi yoki oxiri keltirilish lahzalari bo'lishi mumkin .

Investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini baholashda to'rtta asosiy uslubdan foydalaniladi:

- 1 – uslub: qoplanish muddati boyicha
- 2 – uslub: sof keltirilgan qiymat boyicha
- 3 – uslub: rentabellikning ichki meyori boyicha
- 4 – uslub: foydalilik indeksi

Investitsion loyihalarni baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

- Pul oqimlarini diskontlash orqali baholash (2- va 3 – uslublar)

- Pulning vaqtga nisbatan qadrsizlanishini hisobga olmay baholash (1- va 4 – uslublar)

Quyidagi hollarda korxonada investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini baholashga ehtiyoj tug'uladi:

- eskirgan uskunalarni yangisiga almashtirishga to'g'ri kelganda;
- binolarni ijaraga olish, sotib olish yoki qurish hisobiga ishlab chiqarish quvvatini oshirish rejalashtirilganda
- boshqa korxonalar bilan birlashish imkoniyatidan foydalanishda;
- yangi maxsulotlarni ishlab chiqarishni rejalashtirishda;
- reklama tadbirlarini amalga oshirishni rejalashtirish va boshqa hollarda;

Daromadlilik indeksi. Sof daromad va sof joriy daromadlarni hisoblashda foydalaniladigan dastlabki investitsiya xarajatlari yana bir yordamchi ko'rsatkich – daromadlilik indeksini tuzishda ham ishlatiladi. Bu ko'rsatkich loyiha xarajatlariga nisbatan qaytimni ifodalaydi. Ko'zda tutilgan xarajatlar tarkibiga qarab investitsiyalar daromadlilik indeksi yoki xarajatlar daromadlilik indeksini tuzish mumkin. O'z navbatida, ularning har birini ikki xil ko'rinishda: real va diskontlangan pul oqimi boyicha tasvirlash mumkin.

Muvofiq ko'rsatkichlarning bir-biridan farqlanashi muqarrar hol. Shu sababdan, loyiha samaradorligini daromadlilik indeksi vositasida tavsiflaganda, albatta, u qaysi metod boyicha baholanganini ta'kidlab o'tish lozim. Bu ko'rsatkichlar turli loyihalar boyicha qiyoslanishi esa bir xil uslubdan foydalanishga olib keladi.

Samaradorlikni baholashning konsepsual sxemasi


Investitsion loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonida asosan loyihada investorlar sifatida qatnashuvchi qator subektlar ishtirok etadilar. Investitsion jarayonda turli qatnashuvchilarning iqtisodiy manfaatlari, ayniqsa, ularning shakllanish manbaalari o'zaro mos tushmaydi. Shu sababdan bu guruhlarining har biri uchun loyihani baholash zarurati tug'uladi. Shuni yana bir bor ta'kidlash lozimki, ko'rsatkichlar tizimi, ularni hisoblash algoritmi barcha holatlarda ham bir xil amalga oshiriladi. Farqlar mos keluvchi real pul mablag'lari va samaradorlikni aniqlab beruvchi ma'lumotlar bazasidan iborat bo'ladi.

Samaradorlikning ikki turi va ularga mos keluvchi ko'rsatkichlarni ajratib olish asosida loyiha samaradorligini baholashning ikki bosqichda amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Birinchi bosqichda to'laligicha loyiha samaradorligi aniqlanadi. Agarda u samarali bo'lib chiqsa unda ikkinchi bosqich – loyihada ishtirok etish samaradorligini baholash bosqichiga o'tiladi.

Birinchi bosqichning vazifasi loyiha o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirila olish va kredit jalb qilmaslik taklifidan kelib chiqqan holda to'laligicha samaradorlikni aniqlashdir (ko'p hollarda bu taklif samaradorlikxarakteristikasini pasayishiga olib keladi).

Bu yondashuvloyihada belgilan texnik-texnologik va tashkiliy yechimlar kabilarda o'z aksini topuvchi loyiha samaradorligini tasavvur qilishga imkon beradi. Loyihaning bunday tavsifi uning taqdimoti va loyihani joriy etishda ishtirok etuvchi potensial investorlarni jalb etish uchun zarurdir.

Birinchi bosqichda loyihaning ijtimoiy ahamiyatiga bog'liq ravishda hisob-kitoblar turlicha o'tkaziladi. Agar loyiha ijtimoiy ahamiyatga molik deb topilsa baholash tartibi - rasmda tasvirlangani kabi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.



3.1.1 rasm. Ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalar uchun birinchi navbatda ularning ijtimoiy samaradorligi

Ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalar uchun birinchi navbatda ularning ijtimoiy samaradorligi aniqlanadi.

Ijtimoiy besamara loyiha joriy etishga tavsiya etilmaydi va davlat ko'magi bilan ta'minlanmaydi. Ijtimoiy samaradorlik yetarli deb topilgan holda loyihaning tijoriy samaradorligi baholanishi mumkin. Kam tijoriy samaradorlikka ega bo'lgan ijtimoiy samarador loyihalar kutilayotgan darajadagi tijoriy samaradorlikni

ta'minlab beruvchi turli shakldagi ko'maklarni qo'llash imkoniyatini ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Boshqa (mahalliy) loyihalarning samaradorligini to'laligicha baholashda faqatgina tijoriy samaradorlik baholanadi.

Tijoriy samaradorlik odatda loyihani ishlab chiquvchilar moliyalashtirish manbaalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmagan hollarda aniqlanadi. Agarda manbaalar aniq bo'lsa tijoriy samaradorlikni baholash loyiha hisob-kitoblari qatoridan chiqarilishi mumkin. Bu barcha loyihalar uchun tegishlidir.

Agar loyiha samaradorlik ko'rsatkichlari boyicha to'laligicha jozibador bo'lsa u holda dastlabki bosqichdan ikkinchi asosiy bosqichga o'tiladi.

Baholashning ikkinchi bosqichi moliyalashtirish sxemasi va bu bilan bog'liq xarajatlar, daromadlarni taqsimlashning mumkin bo'lgan variantlari ko'rib chiqilgandan so'ng amalga oshiriladi. Bu bosqichda moliyaviy joriy e'tila bilish va investorlar hamda davlatning ishtirok etish samaradorligi aniqlanadi.

3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish jarayonida markazlashgan investitsiyalar samaradorligini oshirishda xorij tajribasi

Har qanday madaniyatli davlatda bo'lgani kabi, kelgusida investitsiyalarni moliyalashtirishni takomillashtirish maqsadida biz o'z strategik manfaatlarimizni va xorijiy mamlakatlarning ko'p yillik tajribasini hisobga olishimiz kerak. Davlat tomonidan kafolatlangan xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi ichki jamg'armaning yetmasligini qisman qoplashga, davlat tashqi qarzini ko'paytirmagan holda ma'lum miqdorda eng yangi uskunalar va texnologiyalarni olishga, aholining ish bilan bandligini va byudjetga tushumlarni ko'paytirishga imkon beradi.

Respublikamizda investitsiya sohasida amalga oshiralayotgan chora-tadbirlar investitsiya sohasida qonunchilik bilan rag'batlantirishlar yaratilishi mamlakatimizning jahon tajribasiga nazar tashlab ularni rivojlanishini tahlil qilish samarasidir.

Bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri dunyoning yetakchi davlatlari investitsiya faoliyatlarini chuqur tahlil qilgan holda O'zbekiston Respublikasi

investitsiya sohasida samarali tadbirlar dasturini ishlab chiqish va shu orqali iqtisodiyotimizni rivojlantirishimizdan iboratdir.

Mamlakatlar iqtisodiyotining hom ashyo moslashgan tarmoqlariga bevosita xorijiy investitsiyalar hajmi pasaydi, holbuki, xizmatlar sektorida katta o'sish kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlarni ham firmalarning jug'rofiy o'rnidagi afzalliklar va raqobat sohasidagi afzalliklari o'zgarganini ham, shuningdek, rivojlanib borayotgan globallashish va erkinlashish sharoitiga moslashayotganligini aks ettiradi.

Texnologiyalar xarakati xalqaro ishlab chiqarishda muhim rol o'ynamoqda. Investitsiya bilan bog'liq tovarlarda gavydalangan hamda chet eldagi korxonalarga eksport qilinayotgan texnologiyalar o'sha eksport hajmi bilan o'lchanadi. Shartnoma bitimlari bo'yicha berilgan texnologiyalar to'lovlar hajmi va ular bilan bog'liq pul o'tkazmalari hajmi sifatida o'lchanadi. O'qitish orqali berilgan texnologiyalar o'qitishga sarflangan mablag'lar qiymati bilan o'lchanadi. 80- yillar o'rtalaridan boshlab mamlakatlar o'rtasidagi litsenzion to'lovlar shaklidagi texnologik to'lovlar va o'tkazmalar (royalti) beqaror ko'payib bordi. Firmalarning ichki to'lovlarida (bosh firma bilan chet eldagi firmalar o'rtasida) tegishli xarajatlar ulushi ham yuqori bo'lib, ko'payishida davom etmoqda. Bu o'zgarishlar shuni aks ettiradiki, Bevosita xorijiy investitsiyalar texnologiya jixatidan intensiv faoliyat turlari bilan mahkam bog'langan va texnologiyaviy aktivlar raqobatbardoshligini qo'llab quvvatlash uchun tobora muhim bo'lib bormoqda. O'sishning katta qismi rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Ularda litsenziya to'lovlari va tushumlar bevosita xorijiy investitsiyalarga qaraganda tezroq ko'paymoqda. 2014 yilda bu mamlakatlar hissasiga to'lovlarning 88 foizi va litsenziya to'lovlari xalqaro oqimlaridan tushumlarining 98 foizi to'g'ri keladi.

Xalqaro ishlab chiqarish qo'shimcha yangi ish joylarini tashkil etilishga sabab bo'ldi. Bu esa, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda juda muhimdir. Oxirgi yillarda, umuman, ish o'rinlari soni o'zgarmayotgan bo'lishiga qaramay, chet ellardagi firmalarda ish bilan bandlik o'sib bormoqda. Shunga qaramay chet ellarda ish joylari yaratishga asosiy ish xaqiga qilinadigan xarajatlar

ulushlarida mehnatga xaq to'lash xarajatlarining ulushi jami xarajatlarning bor yo'g'i 2 foizini tashkil qiladi, holos.

Xalqaro ishlab chiqarishning moliyaviy bazasi chet ellardagi filiallar aktivlarida aks etadi. Bunday aktivlar rivojlangan mamlakatlarda jamg'arilgan bevosita xorijiy investitsiyalardan to'rt barobar ko'pdir. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlar uchun chet ellardagi filiallar aktivlari jamg'arilgan bevosita xorijiy investitsiyalardan ancha yuqori.

Hozirgi paytda holbuki, rivojlanayotgan mamlakatlarda vaziyat turlicha bo'lmoqda. Masalan, Lotin Amerikasida va Karib xavzasi mamlakatlarida bevosita xorijiy investitsiyalar miqdori oldingi davrga qaraganda birmuncha o'sdi.

2014 yilda Osiyodagi moliyaviy inqirozga qaramay, Lotin Amerikasi va Karib xavzasi mamlakatlariga 71 mlrd AQSH dollaridan ko'proq bevosita xorijiy investitsiyalar kiritildi. Bu esa oldingi yildagidan besh foiz ko'p demakdir. Bu mintaqada bevosita xorijiy investitsiyalar oluvchi asosiy mamlakat Braziliya bo'lib qolmoqda(28 mlrd AQSH dollari). Ushbu mamlakatlarga bevosita xorijiy investitsiyalar kirib kelishiga xizmat ko'rsatish va davlatning sanoat tarmoqlaridagi xususilashtirish jarayoni sabab bo'ldi. Bu mamlakatlarga investitsiyalar oqib kirishini investitsiya bozorining kattaligi ham o'ziga jalb etadi. Ko'rib chiqilayotgan mamlakatlarda bevosita xorijiy investitsiyalar maxalliy bozorga xizmat ko'rsatuvchi xizmatlar va ishlab chiqarish sektorlariga solinayotganligi tufayli ularning to'lov balansiga ta'siri, ayniqsa, kuchli. Masalan, Braziliyada foyda va dividendlarni olib chiqib ketish 2014 yilda 18 foiz o'sib 17,7 mlrd AQSH dollariga yetdi.

Ushbu mintaqada bevosita xorijiy investitsiyalar 11 foiz pasaygan bo'lishiga qaramay, investitsiyalarning boshqa shakllari orasida bevosita xorijiy investitsiyalar, xatto inqirozdan qattiq zarar ko'rgan mamlakatlarda ham barqarorroq bo'lib chiqdi. Bu shu bilan izohlanadiki, ushbu mintaqadagi kompaniyalar aktivlari qiymatining keskin tushib ketishi ayni vaqtda ularning ko'plarini investitsiyalash uchun g'oyat jozibali obyektlarga aylantirib qo'ydi. Chunki mazkur mintaqada mamlakatlari uchun iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli istiqbollari umidbaxsh bo'lib qolmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning qaror topishiga olib boradigan ustivor yoʻnalishlar investitsiyalash, ularni oʻzlashtirish meyorini oshirish, texnologiya resurslari va malakali kadrlarni safarbar etish, jahon bozorlarida milliy eksportning raqobatbardoshligini oshirish, maksimal miqdorda ish joylari yaratish orqali iqtisodiy oʻsishni keltirib chiqaradigan foydani taqsimlash, bunda tabiiy boyliklardan tejab tergap foydalanish va ekologiya muhitini himoya qilish yoʻli bilan barqaror oʻsishga erishishni oʻz ichiga oladi.

Yangi global sharoitlarda xalqaro raqobat mamlakatlarni qoʻyilgan maqsadlariga erishish uchun iqtisodiyotni tinimsiz yangilab borishiga majbur qilmoqda. Bu yangi sharoitlar texnologiya bilimlari jadal rivojlanishi va iqtisodiy makonning torayishi bilan ajralib turadi.

Yangi sharoitlarning muhim jihati investorlarning xarakatchan aktivlarini joylashtirish uchun eng yaxshi joylarni topish maqsadida dunyo mamlakatlari boʻylab qay tarzda qayta taqsimlashlaridan iboratdir. Bunda aktivlar ketidan korporativ boshqarish vazifalarining oʻzi ham koʻpincha koʻchadi, ishlab chiqarish marketingning integratsiyalashuvini chuqurlashtirdi. Natijada, investorlar uchun zarur boʻlgan xarakatsiz aktivlarni taqdim etish qobiliyati bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategiyasi va umuman raqobatbardoshlikni rivojlantirishning eng muhim jihati boʻladi. Bozorning kattaligi investorlar uchun asosiy ragʻbatlantiruvchi omil boʻlib qolavergan bir paytda xalqaro standartdagi infratuzilmaga, taʼlim olgan ishchi kuchiga, innovatsiya resurslariga, eng yaxshi tovar yetkazib beruvchilarga, qoʻllab quvvatlash va servis tuzilmalariga borgan sari koʻproq muhtoj boʻladi. Bulardan tashqari, arzon ishchi kuchi omilining ahamiyati kamayadi. Ushbu omil uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishga yordam beradi, deb ham hisoblab boʻlmaydi. Chunki, daromadlar koʻpayib borgan sari uning kuchi oʻz-oʻzidan qisqaradi. Bu mulohazalar tabiiy resurslar omiliga ham tegishli.

Tuzilmaviy qayta restrukturizatsiyalash investitsiya jarayoni davlat tomonidan qoʻllab quvvatlash tizimidan milliy iqtisodiyotni tahliliy-qiyosiy avzalliklari asosida mavjud raqobatni kuchaytiradigan yangi avzalliklarni yaratishni talab qiladi. Shu bilan birga, tegishli rivojlanish strategiyalari va tegishli investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi tuzilmalarni ahamiyati rivojlanish va

iqtisodiy o'sishga muayyan darajaga erishilgan sari kamayib bormaydi. Shuning uchun ham milliy raqobatbardoshlikni rivojlantirish taraqqiy etgan mamlakatlarda ham rivojlanayotgan mamlakatlarda ham birinchi navbatda e'tibor beradigan obyektidir.

Hukumat tuzilmalarining investitsiya jarayoniga aralashishi bozor iqtisodiyotida bo'lishi mumkin bo'lgan ikki guruh kamchiliklar o'rnini to'ldirishi kerak. Birinchi guruhga investitsiya jarayonidagi axborot va uyg'unlashtirish bilan bog'liq muammolar kiradi. Bu hol samarasiz investitsiyalarning jalb etilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bozor mexanizmi sharoitida yo'l qo'yiladigan ikkinchi guruh kamchiliklar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlari bilan xorijiy investitsiyalarning bir-biriga mos kelmasligiga asoslanadi.

Boshqacha aytganda, hohlagan mamlakat uchun hamma vaqt yaroqli bo'ladigan birdek samarali ideal retsept yo'q.

Bevosita davlat kafolati asosidagi xorijiy investitsiyalar bir qator resurslarni o'z ichiga oladi, ulardan foydalanishdan keladigan yutuqlarga muayyan siyosiy choralarni amalga oshirish orqali erishishi mumkin bo'lib, bu ham maxalliy korxonalarni rivojlantirishda sodir bo'ladigan salbiy samaralarni kamaytirishi mumkin.

Barcha mamlakatlar hukumatlarining vazifalaridan biri maxalliy korxonalarni adolatsiz xalqaro raqobatdan himoya qilishdir. Shu sababli, xorijiy investitsiyalarni jalb etish siyosatini olib borishda ushbu holat hisobga olinadi.

Proteksionizm siyosatiga bir qator "tarafdor" va "qarshi" tomonlar bor. "Tarafdor" bo'lishning eng kuchli dalili yangi, endi paydo bo'lib kelayotgan tarmoqni himoya qilish zarurligidan iboratdir. Biroq xatto shunday holatda ham himoya choralarini ko'rish kerakki, ularni tashkil etish masalalarni xal qilishga xiyotkorlik bilan va puxta o'ylab yondoshish zarur.

Ucha shart himoya choralarining zarurligini kuchaytiradi. Birinchidan, agar yangi tarmoqning maxalliy korxonalari "yetimcha" va chet el raqobatidan himoyalani sharoitidagi to'liq raqobatbardosh bo'lishga qodir bo'lsalar. Ikkinchidan, agar yetilish jarayonida uzoq vaqt zarur bo'lmasa va uchinchidan,

agar himoya shartlari xalqaro raqobatdan keladigan yutuqlarga qaraganda kattaroq ijtimoiy yutuqlar bersa.

Bevosita davlat kafolati asosidagi xorijiy investitsiyalarning o'sish tamoyillari investitsiya qabul qiluvchi mamlakatlarga ta'sir ko'rsatadi va davlat tuzilmalaridan tegishli ko'nikmalarga ega bo'lishni va siyosat yuritishni, shuningdek, muzoqaralar olib borish, tartibga solish rejimini shakllantirish qobiliyatini va tegishli siyosiy choralarni amalga oshirishni talab qiladi.

Gap yirik loyihalar, shu jumladan, xususiylashtirish bilan bog'liq loyihalar xaqida borganda, beriladigan imtiyozlar, grantlar xususidagi shartnomalar umumiy qabul qilingan qoidalar asosida emas, balki xar bir xodisa uchun alohida olib borilganda muzokaralar olib borish qobiliyati oldingi o'rinlardan biriga chiqib qoladi.

Ko'rsatkichlar loyihalar umumiy qiymatining yil mobaynida tugallash rejalashtirilgan loyihalar qiymatiga nisbatan hisoblanadi.

Pirovardida shuni aytmoqchimizki, hozirgi jahon iqtisodiyoti bir-biri bilan juda mustahkam bog'lanib ketgan aloqalar tuguniga o'xshaydi. Unda tashkil etish, kommunikatsiya va ishlab chiqarishning hilma-hil usullaridan foydalaniladi va u muntazam o'zgarib turmoqda. Ayni vaqtda, so'nggi o'ttiz yil mamlakatlarning raqobatlashish va rivojlanish qobiliyatlari o'rtasidagi farqlar o'sib borayotganligini ko'rsatadi. Shuningdek, faqat bozorning o'zigina uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlab bera olmasligi ham ravshan bo'ldi. Bu ishda hukumatlar siyosati juda katta rol o'ynaydi. Lekin bu rol cheksiz proteksionizm to'siqlarini o'rnatish doirasidan chiqib ketadigan aralashishdan iborat bo'lmasligi kerak. Aksincha, hukumatlarning o'zi ziddiyatlar xal qilinishidan va oshkoralik sharoitida ochilayotgan istiqbollar ro'yobga chiqishdan manfaatdor bo'lishlari kerak. Faqat shundagina bevosita xorijiy investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga o'zlarining katta hissalarini qo'shishlari mumkin.

Ayni vaqtda yetarli darajada boshqarilmaydigan bevosita xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi hamma vaqt ham tarmoq va mintaqalarning muammolari xal qila olmaydi, ba'zi mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning

manfaatlarini kamsitilishiga olib keladi, shuningdek, bir hil mehnatga xaq to'lashda noxaq tabaqalanishini vujudga keltirishi mumkin. Shu sababli xorijiy investitsiyalarga munosabat turlicha bo'lib, iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga, bozor konyunkturasining axvoliga, mahsulotning raqobatbardoshligiga bog'liq bo'ladi.

Davlat tomonidan kafolatlangan xorijiy sarmoyani import qiluvchi mamlakatlar odatda quyidagi sabablarga ko'ra investitsiyalarni jalb etishdan manfaatdor bo'ladilar: mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini moliyalash uchun mablag'larning umumiy yetishmasligi, aholi ish bilan bandligi darajasini oshirish zarurligi, to'lov balansi taqchilligini bartaraf qilish va boshqalar.

Bitimlarning qatnashchilari boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik xaqida shartnomalar tuzgan yoki xalqaro tashkilotlarga qo'shilgan vaqtlarda ko'pincha xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga kirib kelishni imkoni boricha erkinlashtirishga xarakat qiladilar.

Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida xorijiy sarmoya qo'yish u yoki bu tarzda chegaralanadi. Garchi uning uchun milliy rejim belgilab qo'yilgan bo'lsada, davlat uning kirib kelishini boshqarib, monopoliyaga qarshi qonunlar qo'llanishi yo'li bilan va boshqa vositalar bilan iqtisodiyotning ayrim sohalariga xorijiy sarmoya solishini cheklab qo'yadi. Xorijiy sarmoyani jalb qilishdan manfaatdor bo'lish, uning uchun qulay sharoit yaratish, milliy rejim e'lon qilish bilan birga xorijiy sarmoyaning faoliyatini boshqarish muhim bo'lib, qonunsiz boyishiga yo'l qo'ymaslik, xorijiy sarmoyani ayrim ishlab – chiqarish tarmoqlariga qo'yishini rag'batlantirish va boshqa tarmoqlarga tadbqiq etishni cheklash zarur.

Bevosita davlat kafolati asosidagi xorijiy sarmoya kirib kelishini kengaytirish choralari ko'rgan vaqtda, eng avvalo milliy iqtisodiy xavfsizlik manfaatlarini ko'zlab, uni boshqarish sohasidagi ma'lum chora – tadbirlar xaqida ham o'ylash kerak. Xorijiy sarmoyalarni milliy iqtisodiyotda butun sohalarni egallab olishi milliy ishlab-chiqarishning rivojlanishiga to'sqinlik qilib, sof iqtisodiy jixatdangina emas, balki ijtimoiy va siyosiy jixatlardan ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mamlakat mudofaasini ham unutmaslik kerak. Xorijiy

sarmoyaning tabiiy resurslaridan nazoratsiz foydalanishiga, ekologik vaziyatni keskinlashtirishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi hammamizga ma’lumdir.

Nazariy jixatdan olganda, xorijiy sarmoyaning, ya’ni davlat tomonidan kafolatlangan sarmoyaning ko‘plab kirib kelishi munosabati bilan O‘zbekistonning hududiy yaxlitligiga tug‘iladigan xavfning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham ko‘rib chiqishlari zarur bo‘ladi.

Biroq, bundan ushbu mintaqalarga xorijiy sarmoya kirib kelishiga to‘sqinlik qilishi kerak, degan ma’no chiqmaydi. Ammo doimo, milliy markazlashgan sarmoya faolligi yuqori bo‘lishi va u hukmron mavqeini saqlab qolishini hamda davlat tomonidan belgilangan doiralarga jalb etilishini shart qilib qo‘yadi.

O‘zbekiston uchun hayotiy zarur bo‘lgan xorijiy investitsiyalardan himoyalaniş emas, balki muqarrar jarayonning qo‘shimcha salbiy oqibatlarini bartaraf etish va investitsiya mexanizmini xavfsizlik tizimi bilan ta’minlash maqsadga muvofiq ekanligi nazarda tutish zarurligini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz.

Hozirgi kunda, hukumatimizning uzoqni ko‘zlab olib borayotgan puxta va oqilona siyosati tufayligina xorijiy sarmoyalar iqtisodimizning qayta tiklanishiga va O‘zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotiga faol qo‘shilishiga sabab bo‘lib, yuqorida ta’kidlangan noxushliklarga to‘siq qo‘ymoqda.

Globallashish kuchayishi tufayli butun dunyo bo‘ylab qisqa muddatlarda kapital, ishlab chiqarish, tovarlar, intellektual salohiyat, mehnat resurslari, axborotlar va boshqalarning ko‘chish jarayoni jadallashadi. Shuning uchun ham, milliy iqtisod sohiblari o‘z investitsiya siyosatini yuritishda bu vaziyatlarni hisobga olishi zarur bo‘ladi. Globallashish ishlab chiqarishning ko‘chishiga va uning oqibatida yo‘ldan chiqqan ishlab chiqarish natijasida mahalliy darajada yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy vaziyatlarning (ishsizlik, byudjetga soliq tushumlarining kamayishi) oldini olishga oz bo‘lsada imkon yaratishi mumkin. Oxir oqibat, globallashish moliya operatsiyalarining erkinlashuviga, xalqaro mehnat taqsimotiga, millatlararo korporatsiyalarning paydo bo‘lishiga, xalqaro raqobatning kuchayishiga olib keladi. Va nihoyat shuni ta’kidlashimiz lozimki, globallashish va jahon bo‘yicha investitsiyalarning o‘sish tendensiyalari

sharoitlarida raqobat sohasidagi siyosatni yolg'iz milliy iqtisodiyot doirasida samarali olib borib bo'lmaydi.

Barcha hollarda ham kafolatlangan markazlashgan kapital eksportyorlarga ishlab chiqarish faoliyatlarini boshqarishda samarali qatnashish imkoniyatlarini yaratadi. Ular o'z egasiga mamlakat chegaralaridan tashqarida investitsiyalar kiritgan firmalar va korxonalar ustidan nazorat o'rnatishni ta'minlaydi, monopoliyalarga qo'yilgan to'siqlarni bartaraf etish, o'z mahsuloti eksportini kengaytirish, xom ashyo va energiya manbalari ustidan nazorat o'rnatish, ancha arzon ishchi kuchlaridan foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosatini tahlil qilib takidlash mumkinki barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida davlatning samarali investitsiya siyosatini qabul qilishimiz mumkin.

Investitsiya siyosatini amalga oshirishda tijorat banklari investitsiya jarayonining asosiy bo'g'iniga korxonalarning chinakkam hamkoriga aylanmog'i, binobarin, ularning rivojlanishidan manfaatdor bo'lishlari mumkin.

Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bu investitsiyalarni moliyalashtirish sohasida davlatimizda tuzilmaviy qayta restrukturizatsiyalash borasida muammolarning mavjudligi. Ushbu muammoni yechishda O'zbekiston Respublikasi hukumati bir qator amaliy chora- tadbirlarni ishlab chiqmoqda. Xorijlik investorlar uchun bir qator huquqiy va siyosiy-iqtisodiy imtiyozlar belgilangan. Jumladan: davlat kafolati, ya'ni ushbu korxonalarning o'zi ishlab chiqargan mahsulotni xech qanday litsenziyasiz va to'siqsiz olib chiqib ketish, xorij investitsiyalari ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar daromadining ishlab chiqarishni va texnologiyani yangilash uchun qayta investitsiyalanadigan qismini soliq to'lashdan ozod qilish, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning davlat mulkini xususiylashtirish jarayoniga, shu jumladan, ularga keng doiradagi ko'chmas mulkni sotish va xususiylashtiriladigan korxonalar aksiyalarining 100 foizga qadar miqdorini sotib olishlariga erkin kirishini ta'minlashdan iborat bo'lgan imtiyozlardir.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini restrukturizatsiya qilish jarayonida markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish holati va ularning samaradorligini oshirishda yanada ijobiy natijalar olish maqsadida quyidagi tavsiya va takliflarni inobatga olish zarur:

1. Investitsiya jarayonlari rivojlanishini to'xtatib turuvchi eng muhim muammolar qatoriga quyidagilarni ham kiritish zarur:

- korxonalarning o'zaro qarzdorliklarini mavjudligi, oborot mablag'larining yetishmasligi, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlariga yetarli darajada investitsiya jalb qilishiga salbiy ta'sir etib, boz ustiga mavjud qo'yilgan sarmoyalardan foydalanish darajasi ham sustligi;

- milliy pulimiz so'mning muomalaga kiritilgan davrdan boshlab qattiq pul-kredit siyosatining yuritilishi natijasida, ya'ni Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga mablag' ajratish qonun bo'yicha 6 oygacha chegaralanganligi (bugungi kunda bu muddat uch oyga tushirilgan) bois mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsion siyosatda markazlashgan investitsiyalar orqali moliyalashtirish miqdori past bo'lib qolganligi;

- markazlashgan investitsiyalardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarining hali ham eski mezonlaridan foydalanilayotganligi.

2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida agrar sohasi katta ahamiyatga ega bo'lganligi sababli markazlashgan investitsiyalarni safarbar etishda bugungi kunda ikkita yo'nalishga qaratish lozim:

- a) bevosita qishloq xo'jaligiga mikro texnikalarni ishlab chiqish va irrigatsiya melioratsiya ishlariga yo'naltirish;

- b) qishloq xo'jalik sohasiga xizmat ko'rsatuvchi sanoat sohasiga ya'ni agrar sohaga texnologiya va texnika, hamda mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarini qayta modernizatsiyalashga yo'naltirish.

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, markazlashgan investitsiyalarni bevosita daromad keltiradigan tarmoqlarga emas, balki aholining talab va istemolini ko'proq qondira oladigan tarmoqlarga joylashtirish byudjet mablag'laridan foydalanishning eng oqilona yo'li bo'lib hisoblanishi kerak.

3. Bevosita savdo-sotiq, ya'ni muomala yo'nalishiga emas, balki moddiy boyliklar ayniqsa aholiga zarur bo'lgan keng istyemol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga yo'naltirish(garchi bu tarmoqlardan keladigan daromad past bo'lsada ular mamlakat aholisini kerakli bo'lgan mahsulotlar bilan tez va qisqa muddat ichida ta'minlanishiga imkon yaratadi);

4. Markazlashgan investitsiyalar samaradorligi ko'rsatkichlarini ulardan olinadigan daromadlari miqdorida emas balki mamlakatda yaratilgan eksportbop tovar asosidagi jami mahsulotlarining miqdoriga nisbatan hamda aholini tez va qisqa muddat ichida qancha mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish miqdori bilan hisoblash.

Bitiruv malakaviy ishimiz negizida keltirilgan xulosa va takliflarimizni amaliy tadbiri o'ylaymizki respublikamiz iqtisodiyotida davlat tomonidan kafolatlangan, markazlashgan investitsion mablag'lardan foydalanish samaradorligini yanada oshirib, investitsiyalarni ko'proq jalb qilib iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga asos bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 1998. 24 dekabr. /Xalqso'zi/, 1999. 12 yanvar. 7-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida" gi qonuni, 1998. 30 aprel. /Xalqso'zi/, 1999. 12 yanvar. 7-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. 1998. 30 aprel. /Soliqvabojxonaxabarlari/, 1998. 22-son.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni (yangi tahrir). /Xalqso'zi/, 2000. 9 iyun, 110-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4053-son Farmoni, 2008 yil 18 noyabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1442-sonli Qarori, 2010 yil 15 dekabr
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi Qarori, 2009 yil 28 iyul
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi Investitsiya dasturi To'g'risida"gi PQ-1213-sonli Qarori, 2009 yil 28 oktyabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-916-sonli Qarori 2008 yil 15 iyul
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 yanvardagi PQ-554- sonli "Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2007 yil 15 mart.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-670-sonli Qarori, 2007 yil 12 iyul.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2005 yil 11 aprel.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 aprel PQ-56-sonli "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2003. 24 yanvar. /Xalqso'zi/, 2003. 25 yanvar.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Kapital qurilishdaiqtisodiyislohotlarniyanadachuqurlashtirishningasosiyyo'nalis hlarito'g'risida”giFarmoni. 2003. 6 may. 3240-son. /Xalqso'zi/, 2003. 8 may, 99-son.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “To'g'ridan-

to'g'rixorijiyinvestitsiyalarnihuquqiyhimoya qilishnikuchaytirishgadoirqo'shimc hachora-tadbirlarto'g'risida”giqarori. 2003. 2 may. /O'zbekistonovozi/, 2003. 3 may. 55-son.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

“Kapital qurilishdaxo'jalikmunosabatlarimexanizminitakomillashtirishchora- tadbirlarito'g'risida”giqarori. 2003. 12 sentyabr. 395-son. /Xalqso'zi/, 2003. 13 sentyabr. 190-son.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jalb etiladigan xorijiy

kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini berishtartibi to'g'risida”giqarori. 2003. 28 noyabr. 534-son. /Soliqvabojxonaxabarlari/, 2003. 19 dekabr. 52-son.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

20. Каримов И.А. Эришган марраларимизни мустаҳкамлаб ислохотлар йўлидан изчил бориш – асосий вазифамиз. “Тошкент оқшоми” газетаси, 2004 йил, 10 февраль

21. Каримов И.А. Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор. “Халқ сўзи” газетаси, 2005 йил 25 феврал.

22. Каримов И.А. “Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир”. Т.: “Ўзбекистон” 2005.

23. Каримов И.А. Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. “Халқ сўзи” газетаси, 2006 йил 11 феврал, № 29 сон.

24. Каримов И.А. “Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш” – Т.: 2010й.

25. Каримов И.А. “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида” Тошкент, 2011.

26. Каримов И.А. “2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. 18.01.2014.
27. Каримов И.А. “2015-йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир”.- Халқ сўзи. 2015 йил 18 январ.

V. Darslik, o'quvqo'llanmavailmiymaqolalar

- 28 Ataniyazov J. Banklar investitsion faolligini oshirish – iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim omili // Bozor, pulvakredit. – Toshkent, 2014. – № 4. – B. 10 -15.
- 29 G'ozibekovD.G'. Investitsiyalarnimoliyalashtirishmasalalari. - T.: «Moliya» nashriyoti, 2003. – 332 b.
- 30 Jo'rayevA.S., Xo'jamqulovD.Y., MamatovB.S. Investitsiyaloyihalaritahlili: Oliy o'quv muassasalari uchun o'quvqo'llanma - T.: - «Sharq», 2003. – 225 b.
- 31 Karimov N.G., Angelidi M.S. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish tizimida sindikat asosida kreditlashtirish (Savollar va javoblar), Toshkent Moliya instituti, 2005. - 96 b.
- 32 Mustafoev Z. Tijorat banklaridainvestitsion kredit berish siyosati // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent, 2013. – № 5. – B. 30-32.
- 33 Shamsiyev B. Erkin kapital harakati yoki kapital oqimining nazorat qilish // Bozor, pulvakredit. – Toshkent, 2014. – № 4. – B. 41-43.
- 34 Uzoqov A., Nosirov E., Sultanov M, Saidov R. Investitsiyaloyihalarinimoliyalashtirish va ularning monitoringi (o'quvqo'llanma). T.: “Iqtisod-moliya”, 2006. -380 b.
- 35 Vahobov A.V. vaboshq. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik /Mual.:A.Vahobov, N. Jumaev, U. Burxanov. - T.: “Sharq”, 2003. – 400 b.
- 36 Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quvqo'llanma. T.: Moliya, 2010. -328 b.
- 37 Xalmuradov E. Korporativ korxonalarda innovatsion jarayonlarni tahlil etish va boshqarish // Bozor, pulvakredit. – Toshkent, 2013. – № 11. – B. 46-52.

- 38 Абрютина М.С., Грачев А.В. Анализ финансово-экономической деятельности предприятий: Учебно-практическое пособие. – 3-е изд., перераб, и доп. – М.: Изд-во «Дело и сервис», 2008. – 272 с.
- 39 Анализ инвестиционных проектов: Учеб.пособие. М.С.Ангелиди., Н.Г.Каримов. ТФИ. – Т.: 2000. – 88 с.
- 40 Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ: учеб.пособие для вузов. – М. :юннити-дана, 2001 . – 286 с.
- 41 Бочаров В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. – М.: Финансы и статистика – 2007. – 160 с.: ил.
- 42 Гулямов С., Гулямова Д. Механизм управления инновационно-инвестиционными проектами // Экономический вестник Узбекистана. – Тошкент, 2013. – № 1. – С. 89-91.
- 43 Золотогоров В.Г. Инвестиционное проектирование PDF. Минск: ИП "Экоперспектива", 2005. — 468 с.
- 44 Капитоненко В.В. Инвестиции и хеджирование: Учебно-практическое пособие. – М.: Приор, 2001. – 239 с.
- 45 Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов. - М.: Финансы и статистика, 2011. - 144 с.: ил.
- 46 Колтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной сферы.учебник для вузов. - СПб.: Издательство Михайлова В.А. 2008. - 432 с.

VI. Internet saytlari

- www.stat.uz
- www.mf.uz
- www.ziyonet.uz
- www.bloomberg
- www.gks.ru
- www.worldcrisis.ru

